8. Plastik deformatsiyaning metall strukturasi ta'siri.
9. Xaroratning deformatsiyalangan metall strukturasi va xossalari ta'siri.
10. Metallarning yemirilishi.
11. Deformatsiya xarorati va tezligining deformatsiyalash jarayoniga ta'siri.
12. Bosim bilan ishlov berishda qo'llaniladigan materiallar.
13. Metallarga bosim bilan ishlov berishning asosiy usullari.
14. Metallarni kiryalash texnologik jarayoni.
15. Kirya asbobi tuzilishi va materiali.
16. To'g'ri presslash bilan teskari presslash orasida farq.
17. Bolg'alash usullari, xarorati va moslamalari
18. Erkin bolg'alashdagi asosiy texnologik jarayonlar va usullar.
19. Hajmiy shtamplashda shtamplar turi va konstruktsiyasi.
20. List shtamplashda qo'llaniladigan materiallar turlari, xossalari va ularga qo'yiladigan talablar.
21. List shtamplash texnologiyasi.
22. Prokat stanlari tasnifi va qo'llanilish soxalari
23. Proktlash maxsulotlari va ularni ishlab chiqarish usullari
24. Bosim bilan ishlov berish jarayonlarida qizdirish qurilmalari
25. Buyumlarni erkin bolg'alash yo'li bilan tayyorlash texnologiyasi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Namangan muhandislik-qurilish
instituti rektori

 Sh. Ergashev

“ 4 ” 11 2023 y.



05.02.02 - Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi.
Mashinashunoslik va mashina detallari
ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun
mutaxassislik fanlaridan imtixon

DASTURI

Namangan-2023

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish institutining “Umumtexnik fanlar” kafedrasida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

1. U.Imomqulov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Umumtexnik fanlar” kafedraasi mudiri t.f.f.d (PhD).
2. J.Muxamedov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Umumtexnik fanlar” kafedraasi professori, t.f.n., dots.
3. A.Umurzaqov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Umumtexnik fanlar” kafedraasi professori, t.f.d., dots.
4. V. Turdaliyev – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Umumtexnik fanlar” kafedraasi professori, t.f.d., prof.

Taqrizchilar:

1. A.Mamaxanov – Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Avtomatika va energetika” fakulteti dekani, t.f.d., dots.
2. Sh.Kenjabayev – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedraasi professori, t.f.d., dots.

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2023 - yil “03” - noyabrdagi 4 - sonli bayonnomasi)

TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRUVCHILAR UCHUN

05.02.02 – MEXANIZMLAR VA MASHINALAR NAZARIYASI. MASHINASHUNOSLIK VA MASHINA DETALLARI IXTISOSLIGI BO‘YICHA

DASTUR

Dastur o‘z ichiga 2 fanni kiritadi- Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi va Mashina detallari.

Fan : MEXANIZMLAR VA MASHINALAR NAZARIYASI

Fanning predmeti, maqsadi, vazifasi va manbalari.

Fanning maqsadi, fanning vazifasi, uslubiy ko‘rsatmalar, baholash mezonlari. Yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda fanning tutgan o‘rni. Predmetlararo bog‘lanish. Hozirgi zamon fan va texnikasida “Mexanizm va mashinalar nazariyasi” faning o‘rni.

“Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi” fani yangi mexanizm va mashinalarni yaratish uchun ilmiy-amaliy asos vazifalarini o‘tadi, avtomobil va boshqa mashinalarda ishlatiladigan mexanizmlarni tuzilishlari, ulami konstruktsiyasi, sifat ko‘rsatkishlarini, ulami ishlatilishi hamda ulardan foydalanish darajasini ta‘minlaydi.

“Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi” fanining **maqsadi** - yuqori texnologik uslublar va uskunalarni xalqaro standartlar darajasida qo‘llanilishini ko‘zda tutadigan loyihalashtirish jarayoniga zamonaviy me‘yorlar va standartlarni tadbiq etish.

“Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi” fanining **vazifasi** mexanizm va mashinalarni turli xil konstruktsiyalarini o‘rganish, ulaming tuzilishi, kinematik va dinamik tahlili va sintezi tushunshalariga ega bo‘lish va nihoyat ulaming maqbul parametrlarini zamonaviy o‘lchash va hisoblash masalalarini qamraydi. «Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi» o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida yuqoridagi vazifalarini bajarishda quyidagi bilimlar va tajribalarga ega bo‘lishi kerak:

- mashina va mexanizmlarni analiz qilish va loyihalashni umumiy uslublarini o‘rganish;
- mexanizmlar yordamida harakatlarni amalga oshirishini umumiy printsiplarni bilish;
- mexanizmlarni mashinalarda o‘zaro bir-biriga nisbatan harakat qilishi va joylashishi;
- mexanik sistemaning kinematik va dinamik xossalarni tafakkur etish;
- qo‘yilgan shartlarga asosan mexanizmlarni maqbul parametrlarini aniqlash;
- aniq mexanizmlarni hisoblashda EHMda hisoblash dasturlarini ishlab

chiqish;

- mashinalar va mexanizmlarning kinematik va dinamik parametrlarini aniqlashda o'lishov asbob-uskunalaridan foydalanishni bilishi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida texnikaviy adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy xujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, qabul qilgan informatsiyasini to'g'ri mushohada qilish qobiliyatini va mustaqil qaror qabul qilishni ko'rsatishi zarur.

“MEXANIZMLAR VA MASHINALAR NAZARIYASI” FANINING MAZMUNI

Mexanizmlar strukturasi va kinematikasi

Umumiy ma'lumotlar. «Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi» fanining kadrlar tayyorlashdagi o'рни, fan maqsadi va vazifalarini. Mashina va mexanizmlarning tuzilishi, yaratilishi va ularni hisoblashlarning rivojlantirish tarixi va usullari. Ushbu fanning respublikamizda rivojlanish tarixi, uning natijalari va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi roli.

Mexanizmlar strukturasi. Mexanizm va mashinalar haqida asosiy tushunchalar, ularning ta'riflari va turlari. Kinematik juftlar va ularning klassifikatsiyalari. Kinematik zanjirlar va ularning turlari. Fazoviy va tekislikda harakat qiluvchi mexanizmlarning qo'zg'aluvchanlik darajasi, ularning klassifikatsiyasi.

Mexanizmlar kinematikasi. Uzatish funksiyasi va mexanizm zvenolarining tezliklarini nisbati. Chiziqli va burchak tezlik, tezlanishlar. Mexanizm zvenolarining holatlari va ulardagi nuqtalarining trayektoriyalari. Mexanizmlarning kinematik xarakteristikalarini planlar yordamida, diagrammalar usulida, analitik usulida hamda eksperimental usulda tekshirish. Mexanizmlarni kinematik tekshirishda EHM ni qo'llash.

Mashinalar dinamikasi

Dinamik tahlilning asosiy masalalari. Mashinaning dinamik parametrlari va ularning xarakteristikalarini. Mashinaning dinamik modeli. Keltirilgan kuch (moment) va masalalar (inertsia momenti).

Dinamik modelning kinetik energiya hamda differentsial tenglamalar formasidagi harakat tenglamalari. Mashinaning harakat rejimlari. Harakat tenglamalarini yechish. Mexanizmlarni notekis harakati.

Mexanizmlar kinetostatikasi. Kinematik zanjirlarning statik aniqligi. Kinematik juftlardagi reaksiya kuchlarini kuch planlari yordamida aniqlash. Yetaklovchi zvenoning kuch hisobi. Jukovskiy teoremasi yordamida muvozanatlovchi kuchni aniqlash.

Mexanizmlarni muvozanatlash. Mexanizmlarni muvozanatlash. Aylanuvchi massalarni statik va dinamik muvozanatlash.

Mexanizmlarda ishqalanish. Ishqalanish turlari, ularning kinematik juftlardagi kushlarini ta'siri. Ishki va tashqi ishqalanishlar. Sirpanma va dumalanishdagi ishqalanish. Ishqalanish koeffitsienti va unga ta'sir etuvchi faktorlar. Yeyilishning asosiy qonuniyatlari. Mexanizmning ishlashiga va ishonchligiga kinematik juftlardagi yeyilishning ta'siri. Yeyilishni miqdoriy hisoblashda EHMni qo'llash.

Mexanizmlarning sintezi

Richagli mexanizmlarning sintezi. Richagli mexanizmlarni sintezi, asosiy masalalari va usullari. Zvenoning berilgan holatlari bo'yicha sintez qilish. Berilgan holatni funktsiyasi bo'yicha va talab qilingan traektoriyasi bo'yicha sintez qilish. Krivoshipni mavjudlik shartlari.

Friktsion va tasmali uzatmalarning sintezi. Friktsion va tasmali uzatmalarni turlari va ularni ishlatilishi. Ularning geometrik va kinematik parametrlarini aniqlash. Eng asosiy geometrik parametri. Shkivlar va ularning turlari. Variator va revers mexanizmlari.

Zanjirli uzatmalarning sintezi. Zanjirli uzatmalarning turlari va ularning sintezi. Ularning geometrik va kinematik parametrlarini aniqlash. Eng asosiy geometrik parametri. Standart qiymatga ega bo'lgan geometrik parametrlar.

Tishli mexanizmlarning sintezi. Tishli mexanizmlarning turlari va ularni ishlatilishi. Ilashishning asosiy qonuni. Evolventali uzatmalarning asosiy geometrik o'lchamlari. Evolventali tish profilini loyihalash va bunday ilashmalami sifat ko'rsatkichlari. Konussimon tishli uzatma yoki uning geometrik hisobi. Ishki ilashmali uzatmalar. Qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan o'qli murakkab tishli uzatmalar, ularni hisoblash va loyihalash. Planetar tishli uzatmalarni hisoblash va loyihalash.

Mushtakli mexanizmlarning sintezi. Mushtakli mexanizmlarning turlari, vazifasi va ishlatish sohalari. Shiqish zvenosining harakat qonunlari va ularni tanlash. Uzatish va bosim burchagi bo'yicha asosiy o'lchamlarini aniqlash. Mushtak profilining qavariqligi shartiga asosan, asosiy o'lchamlarni aniqlash. Berilgan yetaklanuvchi zvenoning harakat qonuni bo'yicha Mushtak profili koordinatalarini aniqlash. Almashtiruvchi mexanizmlar.

Sanoat robotlari va manipulyatori

Manipulyator va robotlar, ularning turlari va ishlatilishi. Manipulyatorlarning sintezi va zvenolarining o'lchamlarini aniqlash. Sanoat robotlarining taraqqiyoti. Qisqichning harakat traektoriyasi va ba'zi zvenolarning harakat qonunlari.

Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar

1. Фролов К.В ва б. Механизм ва машиналар назарияси. -Т.:О‘қитувчи, 1990.
2. Джураев А ва б. Механизм ва машиналар назарияси. -Т.:О‘қитувчи, 2004.
3. Karimov R.I, Saliev A. Mexanizm va mashinalar nazariyasi fanidan o‘quv qo‘llanma. -Т.: ToshDTU, 2006.
4. Abduvaliev U.A., Karimov R.I. “Amaliy mexanika” fanining «Mashina va mexanizmlar naza riyasi» bo‘limidan kurs ishini bajarish bo‘yisha o‘quv qo‘llanma. -Т.: ToshDTU 2008.
5. Усмонхожаев Х.Х. “Механизм ва машиналар назарияси”. Т.: О‘қитувчи, 1981 й.

Qo‘shimsha adabiyotlar

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, Демократик О‘збекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. О‘збекистон Республикаси президентининг лавозимидаги киришиш тантанали маросимидаги бағ‘ишланган Олий Мажлис палаталарининг қо‘шма мажлисидаги нутқи.-Т.: “О‘збекистон” НМИУ, 2016 й. -56 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. О‘збекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағ‘ишланган тантанали маросимидаги маъруза 2016 йил 7 декабрь. -Т.: “О‘збекистон” НМИУ, 2016 й. -48 б.
8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Т.: “О‘збекистон” НМИУ, 2017 й. -48 б.
9. Йо‘лдошбеков С.А Механизм ва машиналар назарияси.-Т.: 2006 й.
10. Иззатов З.Х. "Механизм ва машиналар назариясидан лаборатория ишлари". Т. : «О‘қитувчи», 1982 й.
11. Иззатов З.Х. "Механизм ва машиналар назариясидан курсавий лойиҳалаш". Т. : «О‘қитувчи», 1979 й.
12. J.Muxamedov, V.Turdaliyev, A.Qosimov “Mashina va mexanizmlar nazariyasi fanidan masalalar to‘plami”. Т.: “Fan va texnologiya”, 2018 у. -168 б.

Elektron resurslar

13. www.gov.uz – О‘збекистон Республикаси ҳукумат портали.
14. www.lex.uz – О‘збекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
15. www.ilm.uz.
16. www.zivonet.uz www.sap.ru
16. <http://www.mashmex.ru>

Fan : “MASHINA DETALLARI”.

Fanning predmeti, maqsadi, vazifasi va manbalari.

Fanning maqsadi, fanning vazifasi, uslubiy ko'rsatmalar, baholash mezonlari. Yonalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda fanning tutgan o'ri. Predmetlararo bog'lanish. Hozirgi zamon fan va texnikasida “Mashina detallari” faning o'ri.

“Mashina detallari” fanida o'rganiladigan detal va qismlar zamonaviy mexanizm va mashinalar asosini tashkil qiladi. Talabalarning bu fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmalari turli tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarishda foydalaniladigan mexanizm va mashinalarning konstruktiv, texnologik va ekspluatasion hisoblarini bajarishda dastlabki fundamental ma'lumot sifatida zarur bo'ladi.

Fanni o'qitishdan **maqsad** – talabalarda zamonaviy konstruktsiyalarning eng keng tarqalgan uzatmalari, birikmalari va detallarini hisoblash va loyihalash, muhandislik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha ta'lim yo'nalishlari profillariga mos, davlat ta'lim standartlarida talab qilingan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni mamlakatimiz va chet el fan va texnika yutuqlari asosida o'zlashtirishga qaratilgan.

Fanning vazifalari:

–mashina detallarida detal va uzellarning tuzilishi, ish tarzi, yemirilish turlari va asosiy mezonlarini bilish;

-mashina detallarini asosiy ishchanlik qobiliyati mezonlari bo'yicha (mustahkamlik, bikrlilik, ishqalanishga chidamlilik, issiqbardoshlik va shu kabilar) hisoblash va loyihalashni o'rganish va amalda qo'llash bo'yicha ko'nikma hosil qilish;

-mashina detallarining zamonaviy fan va texnika yutuqlari asosida qo'llaniladigan materiallari, konstruktsiyalari va hisoblash usullari (zamonaviy axborot texnologiyalari asosida) bilan tanishish.

Ushbu dastur ko'pchilik mashinalar uchun umumiy bo'lgan mashina detallari turkumi: uzatmalar, vallar va o'qlar, podshipniklar, muftalar va birikmalarni loyihalash, konstruktsiyalash, hisoblash hamda mashina detallari ishchanlik qobiliyatining asosiy mezonlari: mustahkamlik, bikrlilik, yeyilishga chidamlilik, zanglashga chidamlilik, issiqqa chidamlilik, titrashga ustuvorlikni ta'minlashga o'rgatadigan masala va mavzularni qamrab oladi.

“MASHINA DETALLARI” FANINING MAZMUNI

Mashina detallarini modellashtirish va optimallashtirish

Fanning maqsadi va vazifalari. Masina detallari va uzellariga qo‘yiladigan talablar. Mashina detallarining umumiy tasnifi. Mashinasozlik materiallari va detallarni tayyorlash aniqligi. Mustahkamlikka, bikrlikka, yeyilishga bardoshlilikka, aniqlikka, titrashga bardoshlilikka, uzoq muddatga ishlashga hisoblash. Fanning o‘rni va ahamiyati. Mashinalar ishonchlilikgi haqida tushunchalar. Ruxsat etilgan kuchlanishlarni aniqlash. Mashina detallaridagi mahalliy kuchlanishlar. Mustahkamlik zapasi koeffitsiyentlari. Mashina detallarining kontakt mustahkamligi. Mashina detallarining ishchanlik qobiliyati va hisoblash mezonlari.

Masina detallarini standartlashtirish va uning ahamiyati.

Mashna detal (uzel)lari birikmalari, plastik elementlar va ularning hisobi: *payvand, kavshar va yelimli birikmalar, parchin mixli birikmalar, rezbali, shponkali, shlitsali, profilli va shtiftli birikmalar, prujinalar va rezinali elastik elementlar.*

Payvand birikmalar. Uchma-uch payvand birikma va uni hisoblash. Ustma-ust payvand birikma va uni hisoblash. Kontakt payvandlash. Payvand birikmalar mustahkamligini oshiri bo‘yicha tavsiyalar.

Kavsharli va yelimli birikmalar. Kavsharli birikmalar. Yelimli birikmalar. Parchin mixli birikmalar. Parchin mixli birikmalar haqida umumiy ma’lumotlar va ularni turlari. Parchin mixli birikmalarni hisoblash.

Rezbali birikmalar. Umumiy ma’lumotlar. Rezbaning handasaviy (geometrik) ko‘rsatkichlari. Rezbalarining asosiy turlari. Vintli juftdagi kuch nisbatlari. Burovchi moment. Vintli juftning o‘z-o‘zidan to‘rmozlanishi va foydali ish koeffitsiyenti. Mustahkamlik darajalari, rezbali detallar uchun ishlatiladigan materiallar va ruxsat etilgan kuchlanishlar. Rezbali birikmalarni mustahkamlikka hisoblash. Rezbali birikmalarni konstruksiyalash bo‘yicha tavsiyalar.

Shponkali birikmalar. Shponkali birikmalar haqida umumiy ma’lumotlar. Shponkali birikmalarni hisoblash.

Shlitsali birikmalar. Shlitsali birikmalarning turlari va ularning qo‘llanishi. Shlitsali birikma detallarining yemirilish turlari. Shlitsali birikmalarning ishlash qobiliyati va ularni hisoblashning asosiy mezonlari. Slitsali birikmalarning yuklanish qobiliyatini hisoblash usullari. Shlitsali birikmalarning soddalashtirilgan (taxminiy) hisobi. Shlitsali birikmalarni GOST 21425-75 bo‘yicha konstruksiyalash bo‘yicha tavsiyalar.

Detallarni tig‘izlik hisobiga biriktirish. Umumiy ma’lumotlar. Presslangan birikmalarni hisoblash. Tribotexnika asoslari. Ishqalalanishning turlari. Yeyilishning turlari. Moylash materiallari. Moylash moylari. Plastik moylash materiallari. Qattiq moylash materiallari.

Uzatuvchi mexanizmlar va ularning hisobi: *masmali uzatmalar, friksion uzatmalar va variatorlar, tishli va giperboloid uzatmalar, vint-gaykali uzatmalar, zanjirli uzatmalar va boshqalar.*

Mexanik uzatmalar haqida umumiy ma'lumotlar. Uzatmalarning asosiy parametrlari, foydali ish koeffitsiyenti, uzatish nisbati, yuritmalar haqida qisqacha ma'lumot. Yuritmalarni kinematik hisoblash.

Friksion uzatmalar va variatorlar. Umumiy ma'lumotlar. Uzatmada ishlatiladigan materiallar va dumalash jismlari ishchi yuzalarining shkastlanish turlari. Friksion uzatmalarni hisoblash. Konussimon friksion uzatmalarni hisoblash. Variatorlar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar. Variatorlarni hisoblash tarhlari va ularning konstruksiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

Tishli uzatmalar. Umumiy ma'lumotlar. Tishli uzatmalarning geometriyasi va kinematikasi xususida qisqacha ma'lumotlar. Tishlarning yemirilish turlari. Tishli uzatmaning ishchanlik qobiliyati va hisoblash mezonlari. Hisobiy yuklama. To'g'ri tishli silindrsimon uzatmalarni mustahkamlikka hisoblash. Qiya va shevron tishli silindrik uzatmalarni hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Konussimon tishli uzatmalar. Qiya va aylana tishli konussimon uzatmalar. Uzatmalarda ishlatiladigan materiallar va termik ishlov turlari. Ruxsat etilgan joiz kuchlanishlar. Tishli uzatmalar konstruksiyasini maqbullashtirish. Planetar uzatmalar va ularni hisoblashdagi xususiyatlar. Novikov ilashmali uzatmalar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar. Ayqash o'qli vintaviy va gipoid uzatmalar xususida qisqacha ma'lumotlar. Chervyakli uzatmalar. Uzatmaning geometrik parametrlari va ularning tayyorlash usullari. Uzatmalarning kinematik parametrlari. Chervyakli uzatmalarning foydali ish koeffitsiyenti. Uzatmadagi kuchlar. Uzatmani baholash va uning ishlatilishi. tishlar mustahkamligini hisoblash. Chervyakli uzatmalarda ishlatiladigan materiallar va joiz kuchlanishlar. Chervyakli uzatmani qizishga hisoblash, sovitish va moylash. Globoid uzatmalar.

To'lqinsimon uzatmalar haqida qisqacha ma'lumotlar. Vint-gaykali uzatmalar. Tasmali uzatmalar. Tasmali uzatma to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Tasmali uzatmalarni hisoblash asoslari. Yassi tasmali uzatmalar. Ponasimon tasmali uzatmalar. Tishli tasmali uzatmalar.

Zanjirli uzatmalar. Umumiy ma'lumotlar. Zanjirli uzatmalarning asosiy tasniflari. Zanjir, yulduzchalarning tuzilishi va ular uchun ishlatiladigan materiallar. Zanjirli uzatmadagi kuchlar. Zanjirli uzatma kinematikasi va dinamikasi. Zanjirli uzatmalarning ishchanlik qobiliyati va ularni hisoblash mezonlari. Zanjirli uzatmaning amaliy hisobi.

Vallar, muftalar, tayanchlar, korpuslar va ularning hisobi.

Vallar va o'qlar, muftalar, sirpanish va dumalash podshipniklari, korpus detallari, moylash materiallari va qurilmalari. Vallar va o'qlar. Vallar va o'qlarning

tuzilishi va ular uchun ishlatiladigan materiallar. Vallarning loyihaviy hisobi. Vallarning tekshiruv hisobi.

Podshipniklar. Umumiy ma'lumotlar. Sirpanish podshipniklari. Umumiy ma'lumotlar va tasnifi. Sirpanish podshipniklarini shartli hisoblash. Dumalash podshipniklari. Dumalash podshipniklari to'g'risida umumiy ma'lumotlar va ularning tasnifi. Dumalash podshipniklarining ishlash sharoiti va uning ishchanlik qobiliyatiga ta'siri. Dumalash podshipniklarining amaliy hisobi (ularni tanlash). Podshipniklarni dinamikaviy yuk ko'taruvchanlik C bo'yicha hisoblash. Dumalash podshipniklarini statikaviy yuk ko'taruvchanlik C bo'yicha tekshirish va tanlash. Radial-tirak podshipniklar yuklamasini hisoblashning xususiyatlari.

Muftalar. Umumiy ma'lumotlar va vazifalari. Sidirg'a muftalar. Tishli muftalar. Zanjirli muftalar. Elastic vtulka-barmoqli muftalar.

Yuk ko'tarish-tashish mashinalari.

Yuk ko'tarish mashinalari va yuk tashish mashinalari haqida qisqacha ma'lumotlar. Ularning ish rejimlari. Sodda va murakkab yuk ko'tarish mashinalari. Yuk ko'tarish mashinalarining asosiy detallari va qismlari: ilgak, po'lat arqon, baraban, blok, poliplastlar, to'xtatgich va tormozlar haqida ma'lumotlar.

Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar

1. Shoobidov Sh.A. Mashina detallari. Texnika oily o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: "O'zbekiston ensiklopediyasi", 2014. -444 b.
2. Kurganbekov M.M., Moydinov A. Mashina detallari: O'quv qo'llanma. I va II qismlar.-Toshkent: "O'zbekiston ensiklopediyasi", 2014. -384 b.
1. Шообидов Ш.А.Машина деталлари. О'қув қо'лланма. Тошкент 2004-120 б.
2. Шообидов Ш.А. Мусаев С.У. Юритмалар. Тасмали ва занжирли узатмаларни лойихалаш. О'қув қо'лланма. Тошкент 2000-82 б.
3. Шообидов Ш.А. Мусаев С.У. Тишли ва червякли узатмаларни лойихалаш.Тошкент 2005-80 б.
4. Shoobidov Sh.A., Musayev S.O'.Ko'tarish, transport mashinalari. O'quv qo'llanma.-T.; «SHARQ»,2007,-192 b

Qo‘shimsha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Т.: “О‘збекистон” НМИУ, 2017. -48 б.
2. О‘збекистон Республикасини янада ривожлантириш бо‘йича Наракатлар стратегияси то‘ғ‘рисида. Т.: 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сонли фармони.
3. Nosirov S.N “Mashina detallari” fanidan kurs loyihasini bajarish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, -Т.: Yangi asr avlodi, 2008 у. 217 b
4. Kurganbekov M.M., Musayev S.O., Mirzayev Q.Q. “Mashina detallari” kursi bo‘yicha laboratoriya ishlari. O‘quv –uslubiy qo‘llanma. ToshDTU, 2011.-89 b.
5. Moydinov A., Kurganbekov M.M. Reduktorlarning konstruksiyasini yaratish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2011. -64 b.
6. Kurganbekov M.M., Mirzayev Q.Q. “Mashina detallari” fanidan kurs loyihasini bajarishda “Mexanik yuritmalarning kinematic hisobi”. Uslubiy ko‘rsatma.ToshDTU, 2014. -82 b.

Elektron resurslar

1. www.edu.uz.
2. www.edu.ru
3. www.cer.uz
4. www.ziyo net.uz
5. www.ilm.uz
6. www.uza.uz
7. <http://www.detalmash.ru>

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun 05.02.02-Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari ixtisosligi bo'yicha mutaxassislik fanlaridan kirish sinovlarini baholash
ME'ZONI

1. mutaxassislik fanlaridan kirish sinovlari yozma ish tarzda sinov savollariga javoblar yozish asosida o'tkaziladi. Har bir savolnoma 5 ta savoldan iborat bo'ladi.
2. Yozma ishlar 0 baldan 100 balgacha baholanadi. Har bir savol maksimal 20 baldan baholanadi.
3. Savolnomaning har bir savoli quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:
 - 15-20 ball, savol to'la har tomonlama chuqur yoritilgan chizma sxemalar berilganshu savolning hamma pozitsiyalari yoritilgan xulosa berilgan, o'z fikr mulohazasini erkin ifodalay olgan;
 - 10-15 ball, savol to'la yoritilgan chizma va sxemalari berilgan savolda asosiy pozitsiyalar yoritilgan, xulosa berilgan;
 - 5-10 ball, savol qisman yoritilgan bo'lib, umumiy fikrlar berilgan, asosiy pozitsiyalar yoritilgan, chizma va sxemalari berilmagan, xulosa berilgan;
 - 0-5 ball, savol qisman yoritilgan bo'lib, chizma va sxemalar berilmagan, xulosalar berilmagan.Savolnomadagi 5 ta savolning yozilgan javoblariga qo'yilgan ballar yig'indisi asosida tayanch doktoranturaga kiruvchilarining ixtisoslik fanlaridan to'plagan umumiy bali aniqlanadi.

05.02.02-Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun ixtisoslik bo'yicha savollar

1. MMN fani, tarixi va uning tushunchalari.
2. Mashina va mexanizmlar turlari va ularning qo'llanish soxalari
3. Kinematik juftlar va ularning sinflari
4. Tekis mexanizmlarning strukturaviy analizi, ularning erkinlik darajasi (Chebishev ifodasini turli mexanizmlarda qo'llanishi), ortiqcha bog'lanishlar.
5. Fazoviy mexanizmlarning strukturaviy analizi, ularning erkinlik darajasi(Somov-Malshev ifodasini turli mexanizmlarda qo'llanishi).
6. Richagli mexanizmlar va ularning turlari
- 7.Chebishev mexanizmi, bo'g'inlar turlari
8. Assur guruhlari va mexanizm sinflari.
9. Richagli mexanizmlarning kinematik analizi
10. Uzatish funksiyasi.
11. Tezliklar plani va vektor tenglamalar
12. Tezlanishlar plani va tezlik vektor tenglamalar
13. Mexanizmlar analizining diagrammalar usuli
14. Koriolis tezlanishi, uning vektor yo'nalishini aniqlash va amalda qo'llash (misollar keltirish).

15. Kinematik parametrlarni tajriba yo‘li bilan aniqlash va tekshirish. Eksperimental diagrammalar qurish.
- 16 Kuchlar va kuch momentlari. Muvozanat tenglamalari va ularni amalda qo‘llash.
17. Dalamber printsipi va inertsiya kuchi
18. Mexanizmga tahsir etuvchi tashqi va ichki kuchlar, ularning mashinalar FIKga tahsiri.
19. Mexanizm kinematik juftlaridagi reaksiya kuchlarini aniqlash, aniqlash usullari va qo‘llanishi.
20. Mexanizm va mashinalarning quvvati, uning modulini toppish usullari.
21. Mashinaning xarakat rejimlari
22. Mexanizmning dinamik modeli, uning kinetik energiyasi, va uning o‘zgarishi.
23. Keltirilgan massa va keltirilgan kuch, ularning matematik ifodalarini keltirib chiqarish.
24. Mashinaning xarakat tenglamalari, ularni energiya balansiga bo‘g‘lab tuzish va yechish.
26. Mashinaning xarakat tenglamalari, ularni kuch va kuch momentiga bo‘g‘lab tuzish va yechish.
27. Ishqalanish turlari va uning oqibatlari
28. Ishqalanish kuchini va koeffitsienti
29. Friksion mexanizmlar ularning afzalliklari va kamchiliklari, amalda qo‘llanishi.
30. Tishli mexanizmlar, ularning vazifasi va turlari, tishli g‘ildiraklar shakllari, evolventa tushunchasi va xossalari.
31. Evolventa tishli g‘ildiragining aylanmalari, asosiy parametrlari.
32. Tishli mexanizmlarning uzatish soni va nisbati (misollar keltiring).
33. Epitsiklik va planetar mexanizmlar
34. Villis formulasi, uning epitsiklik va planetar mexanizmlar uchun qo‘llanishi.
35. Planetar mexanizmlar uzatish sonini grafik usulda aniqlash, usulning afzalliklari va kamchiliklari.
36. Planetar va differentsial mexanizmlarning erkinlik darajasini toppish (misol keltiring).
37. Kulachokli mexanizmlar vazifasi va turlari, ularning asosiy parametrlari, qo‘llanishi.
38. Kulachokli mexanizmlar analizi va sintezi, xarakat diagrammalarini grafik integrallash (misol keltiring).
39. Kulachok profilini chizish ilgarilanma qaytma va tebranma xarakatlanuvchi turtkichli mexanizmlar misolida.
40. Kulachokli mexanizm bo‘g‘inlari harakatlarini tezliklar plani yordamida tekshirish (misol keltiring).
41. Kulachokli mexanizm bo‘g‘inlari harakatlarini tezlanishlar plani yordamida tekshirish(misol keltiring).
42. Kulachokli mexanizmlar erkinlik darajasini topish.(tekis va fazoviy mexanizmlar uchun)

43. Richagli mexanizmlar sintezi, uning usullari va qo'llanishi.
44. Krivoshipning mavjudlik sharti.
45. Jukovskiy richagi, uning asoslanishi mohiyati va qo'llanishi (misol keltiring).
46. Statik va dinamik muvozanatlash usullari (misol keltiring).
47. Tajriba usulida kuch va kuch momentlarini o'lchash, statistik mahlumotlarni taxlillash usullari.
48. Mexanizmlarning matematik modellarini tuzish usullari, ularni amalda qo'llash va EHMda yechish dasturlari.
49. Manipulyator bo'g'inlari xarakat tenglamalarini tuzish va yechish.
50. Richagli mexanizmlar kinematik va dinamik analizini analitik usulda o'tkazish, xarakat va muvozanat tenglmalar tuzish va ulani EHM yordamida yechish.
51. Mashina detallari fanidan asosiy tushunchalar va mashina detallariga qo'yiladigan asosiy talablar.
52. Material uchun ruxsat etilgan kuchlanish.
53. Plastik va mort materiallar uchun ruxsat etilgan kuchlanishni aniqlash.
54. Detal materialiga qo'yiladigan asosiy talablar.
55. Birikma turlari, ularning qo'llanishi.
56. Parchin mixli birikmalar, ularning turlari.
57. Parchin mixli birikmalar hisobi.
58. Payvand birikmalar, ularning turlari.
59. Birikma turlari, ularning qo'llanishi.
60. Ustma-ust payvand birikma.
61. Tavrli payvand birikma xisobi.
62. Rezbali birikmalar, ularning turlari.
63. Rezba parametrlari tasnifi.
64. Rezbali birikmalar hisobi.
65. SHponkali birikmalar, ularning turlari.
66. Uzatmalar, ularning turlari.
67. Uzatma kattaliklarining o'zaro bog'lanishi.
68. Uzatish soni F.I.K, burovchi moment tushunchalari.
69. Variatorlar
70. Friksion uzatmalarni hisoblash tartibi.
71. Tasmali uzatmalar, ularning turlari va detallari
72. Yassi tasmali uzatma hisobi.
73. Ponasimon tasmali uzatma hisobi.
74. Zanjirli uzatmalar, uning geometriyasi
75. Tishli uzatmalar, ularning turlari va detallari
76. Ajraladigan birikmalar
77. Bolt tanasining mustaxkamlik sharti
78. Rezbaning mustaxkamlik sharti
79. Zo'riqtirilgan shponkali birikmalar
80. Zo'riqtirilmagan shponkali birikmalar
81. Mexanik uzatmalar turlari ularning detallari
82. Reduktorlar va ularning turlari

83. Tishli uzatmada hosil boʻladigan kuchlar
84. Chervyakli uzatmalar, ularning detallari
85. Shlitsali birikmalar, ularning qoʻllash sharti
86. Chervyakli uzatmalar hosil boʻladigan kuchlar
87. Tishli uzatmada ishlatiladigan materiallar
88. Vallar va oʻqlar xaqida tushunchalar
89. Vallar hisobi
90. Podshipniklar va ularning turlari
91. Muftalar va ularning turlari, detallari
92. Zanjirli uzatmada hosil boʻladigan kuchlar
93. Konussimon tishli uzatmalar, ularning detallari

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

**Namangan muhandislik-
qurilish instituti rektori**

Sh.T.Ergashev

2023 y.



05.02.03 - Texnologik mashinalar, robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun
mutaxassislik fanlaridan imtixon

DASTURI

Namangan - 2023 y.

Dastur Namangan muhandislik-qurilish instituti Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Abdulxayev X.G‘. – Namangan muhandislik-qurilish instituti Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrası mudiri, texnika fanlari doktori, dotsent.

Rustamov R.M.– Namangan muhandislik-qurilish instituti Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrası professori, texnika fanlari doktori.

Mansurov M.T.– Namangan muhandislik-qurilish instituti Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrası professori, texnika fanlari doktori.

Ergashev Sh.T.– Namangan muhandislik-qurilish instituti Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrası professori, texnika fanlari nomzodi.

Otaxanov B.S.– Namangan muhandislik-qurilish instituti Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Muradov R.M. – Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrası professori, texnika fanlari doktori.

Turdaliyev V.M. – Namangan muhandislik-qurilish instituti Umumtexnika fanlari kafedrası professori, texnika fanlari doktori.

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2023 - yil “03” - noyabrdagi 4 - sonli bayonnomasi)

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ishlab chiqarish korxonalarini texnika va texnologiyalarini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mashinasozlik, to'qimachilik va yengil sanoat, oziq-ovqat mashina va agregatlarini takomillashtirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga erishiladi. Buning uchun bizning oldimizga malakali va yetuk kadrlar tayyorlash vazifalari qo'yilmoqda. Bu borada ixtisoslik fanlarini chuqur o'rganish birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Texnika va texnologiyalarni hamda fan va ishlab chiqarishni jadal suratlar bilan rivojlanib borayotganligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatiga qo'yilayotgan talablarni tobora ortib borishi va boshqa bir qator omillar mutaxassislar malakasi, bilim va ko'nikmalarini ham o'sishini taqozo etadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar, talim yo'nalishining DTS va namunaviy me'yoriy hujjatlari talablarini inobatga olgan holda ta'lim yo'nalishi ishchi o'quv rejasi «Ixtisoslik fanlari» blokiga kiritilgan fanlarni sanoatga kirib kelayotgan yangi texnologiyalar va jihozlarni yangilanib borishi nazarda tutilgan holda ishlab chiqilib, talabalar va magistrantlarni o'qish jarayoni tashkil etilgan. SHu sababli fan dasturlaridagi ayrim mavzularni o'zgarishi, qo'shimchalar kiritilishi lozimligini nazarda tutish kerak bo'ladi.

Ushbu dastur 05.02.03 – “Texnologik mashinalar, robotlar, mexatronika va robotatexnika tizimlari” ixtisosligi bo'yicha texnologik jarayonlar tizimlarini nazariy asoslari va mashinasozlikda texnologik jarayonlarni loyixalashni ilmiy asoslari” fanlaridan qo'shimcha imtixon topshiruvchi doktorantlari (PhD) uchun mo'ljallangan bo'lib, 5 ta bo'limdan iborat: mashina detallari, tarmoq korxonalarining texnologik mashina va jihozlari, texnologik jihozlarni hisoblash va konstruktsiyalash, avtomatika asoslari va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, texnologik mashinalar va jihozlarni ta'mirlash. Mazkur dastur “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablariga mos ravishda, “Texnologik mashinalar va jihozlari” ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarining fan dasturlari asosida tuzilgan.

KIRISH

Hozirgi paytda jahon andozalari bo'yicha tayyor mahsulot ishlab chiqarish sanoatning barcha sohalari oldida turgan dolzarb masaladir. Biroq, aksariyat korxonalarining texnologik mashina va jihozlari eskirgan bo'lib, zamon talabidagi mahsulot ishlab chiqarishga javob bermaydi. Natijada, jahon bozorida xaridorgir bo'lgan sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilishi mamlakatimiz byudjetiga horijiy valyuta tushumining kamayishiga olib keladi. Buning oqibatida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari kamayishiga va aksariyat hollarda xom ashyoni chetga sotishga majbur bo'lib qolinadi. Ushbu sohani rivojlantirish uchun texnologik mashinalar va jihozlarni takomillashtirish, xorijdan keltirilayotlarini esa ishlatish hamda ularga texnik xizmat ko'rsatishni talab etiladi.

Sanoat mashina va jihozlarni loyihalash va ishlab chiqarish uchun fan va texnikaning so'nggi yutuqlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, ushbu sohaning zamonaviy texnika va texnologiyasini ishlatadigan, ularga texnik xizmat ko'rsatadigan yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj sezilmoqda.

Tayanch doktoranturaga (PhD) kiruvchilar quyidagilarni puxta bilishi kerak:

- tarmoq korxonalar mashina va jihozlari boshqaruvini zamonaviy hamda istiqbolli usullarini;

- tarmoq korxonalar mashina va jihozlari dinamikasining asoslarini;

- sanoat mashinalari va mexanizmlari hamda detallarini mustahkamlikka hisoblashning zamonaviy usullarini;

- mashinasozlik texnologiyasi asoslari va unda aniqlikni ta'minlash usullarini;

- tarmoq mashinalarni texnik diagnostikalashning asosiy tamoyillari va istiqbolli rivojlanishini;

- tarmoq mashinalarida ishqalanish va yeyilish haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- tarmoq korxonalariga tegishli bo'lgan ta'mirlash sexlarini loyihalashni;

- tarmoq mashina va mexanizmlari hamda detallarini puxtaligini ta'minlashni;

- tarmoq mashinalarini hisoblash va loyihalash asoslarini bilishi, fan-texnika yutuqlari bo'yicha fikr yuritish, o'zlashtirish, nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qila olishi lozim.

MUTAXASSISLIK FANLARIDAN KIRISH IMTIHONLARI DASTURI

1. MASHINA DETALLARI FANI

Mashina detal(uzel)lari birikmalari, plastik elementlar va ularning hisobi: payvand, kavshar va yelimli birikmalar, parchin mixli birikmalar, rezbali, shponkali, shlitsali, profilli va shtiftli birikmalar, prujinalar va rezinali elastik elementlar.

Payvand birikmalar. Uchma-uch payvand birikma va uni hisoblash. Ustma-ust payvand birikma va uni hisoblash. Kontakt payvandlash. Payvand birikmalar mustahkamligini oshirish bo'yicha tavsiyalar.

Kavsharli va yelimli birikmalar. Kavsharli birikmalar. Yelimli birikmalar. Parchin mixli birikmalar. Parchin mixli birikmalar haqida umumiy ma'lumotlar va ularni turlari. Parchin mixli birikmalarni hisoblash.

Rezbali birikmalar. Umumiy ma'lumotlar. Rezbaning geometrik ko'rsatkichlari. Rezbalarining asosiy turlari. Vintli juftdagi kuch nisbatlari. Burovchi moment. Vintli juftning o'z-o'zidan tormozlanishi va foydali ish koeffitsienti. Mustahkamlik darajalari, rezbali detallar uchun ishlatiladigan materiallar va ruxsat etilgan kuchlanishlar. Rezbali birikmalarni mustahkamlikka hisoblash. Rezbali birikmalarni konstruksiyalash bo'yicha tavsiyalar.

Shponkali birikmalar. Shponkali birikmalar haqida umumiy ma'lumotlar. Shponkali birikmalarni hisoblash.

Shlitsali birikmalar. Shlitsali birikmalarning turlari va ularning qo'llanishi. Shlitsali birikma detallarining yemirilish turlari. Shlitsali birikmalarning ishlash qobiliyati va ularni hisoblashning asosiy mezonlari. Shlitsali birikmalarning yuklanish qobiliyatini hisoblash usullari. Shlitsali birikmalarning soddalashtirilgan (taxminiy) hisobi. Shlitsali birikmalarni GOST 21425-75 bo'yicha konstruksiyalash bo'yicha tavsiyalar.

Detallarni tig'izlik hisobiga biriktirish. Umumiy ma'lumotlar. Presslangan birikmalarni hisoblash. Tribotexnika asoslari. Yeyilishning turlari. Moylash materiallari. Moylash moylari. Plastik moylash materiallari. Qattiq moylash materiallari.

Mexanik uzatmalar haqida umumiy ma'lumotlar. Uzatmalarining asosiy parametrlari, foydali ish koeffitsienti, uzatish nisbati, yuritmalar haqida qisqacha ma'lumot. Yuritmalarni kinematik hisoblash.

Friktsion uzatmalar va variatorlar. Umumiy ma'lumotlar. Uzatmada ishlatiladigan materiallar va dumalash jismlari ishchi yuzalarining shkastlanish turlari. Friktsion uzatmalarni hisoblash. Konussimon friktsion uzatmalarni hisoblash. Variatorlar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar. Variatorlarni hisoblash

turlari va ularning konstruksiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

Tishli uzatmalar. Umumiy ma'lumotlar. Tishli uzatmalarning geometriyasi va kinematikasi xususida qisqacha ma'lumotlar. Tishlarning yemirilish turlari. Tishli uzatmaning ishchanlik obilyati vahisoblash mezonlari. Hisobiy yuklama. To'g'ri tishli silindrsimon uzatmalarni mustakamlikka hisoblash. Uzatmalarda ishlatiladigan materiallar va termik ishlov turlari. Ruksat etilgan joiz kuchlanishlar. Tishli uzatmalar konstruksiyasini maqbullashtirish. Uzatmaning geometrik parametrlari va ularning tayyorlash usullari. Uzatmalarning kinematik parametrlari. Chervyakli uzatmalar va ularning foydali ish koeffitsienti. Uzatmadagi kuchlar. Uzatmani baholash va uning ishlatilishi. Tishlar mustahkamligini hisoblash. Chervyakli uzatmalarda ishlatiladigan materiallar va joiz kuchlanishlar.

To'lqinsimon uzatmalar haqida qisqacha ma'lumotlar. Vint-gaykali uzatmalar. Tasmali uzatmalar. Tasmali uzatma to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Tasmali uzatmalarni hisoblash asoslari. Yassi tasmali uzatmalar. Ponasimon tasmali uzatmalar. Tishli tasmali uzatmalar.

Zanjirli uzatmalar. Zanjirli uzatmalarning asosiy tasniflari. Zanjir va yulduzchalarning tuzilishi hamda ular uchun ishlatiladigan materiallar. Zanjirli uzatmadagi kuchlar. Zanjirli uzatma kinematikasi va dinamikasi. Zanjirli uzatmalarning ishchanlik qobiliyati va ularni hisoblash mezonlari. Zanjirli uzatmaning amaliy hisobi.

Vallar va o'qlar, muftalar, sirpanish va dumalash podshipniklari, korpus detallari, moylash materiallari va urilmalari. Vallar va o'qlar. Vallar va o'qlarning tuzilishi va ular uchun ishlatiladigan materiallar. Vallarning loyihaviy hisobi. Vallarning tekshiruv hisobi.

Podshipniklar. Sirpanish podshipniklari. Umumiy ma'lumotlar va tasnifi. Sirpanish podshipniklarini shartli hisoblash. Dumalash podshipniklari to'g'risida umumiy ma'lumotlar va ularning tasnifi.

Muftalar. Umumiy ma'lumotlar va vazifalari. Sidirg'a muftalar. Tishli muftalar. Zanjirli muftalar. Elastik vtulka-barmoqli muftalar.

Yuk ko'tarish va tashish mashinalari haqida qisqacha ma'lumotlar. Ularning ish rejimlari. Sodda va murakkab yuk ko'tarish mashinalari. Yuk ko'tarish mashinalarining asosiy detallari va qismlari: ilgak, po'lat arqon, baraban, blok, polioplastlar, to'xtatgich va tormozlar haqida ma'lumotlar.

2. TARMOQ KORXONALARINING TEXNOLOGIK MASHINA VA JIHOZLARI FANI

Tarmoq korxonalarining texnologik mashinalari va jihozlari kursining umumiy tushunchalari. Fanning ahamiyati. Asosiy atama va tushunchalar.

Tarmoq korxonalarining texnologik mashinalari va jihozlaridagi jarayonlar. Jarayonlar turlari, qonunlari, harakatlantiruvchi kuch.

Mexanik jarayonlar. Mexanik jarayonlarning asoslari. Mexanik jarayonlarning turlari, qo'llanilishi. Maydalash. Sochiluvchan moddalar klassifikatsiyasi.

Quritish jarayoni. Quritish jarayoni turlari va qo'llanilishi. Quritgichlar klassifikatsiyasi.

Tasmali konveyerlar. Tasmali konveyerlar haqida tushuncha. Tasmali konveyerlarning sxemalari. Tasmali konveyerlarning umumiy tuzilishi. Tortuvchi organlar.

Cho'michli konveyerlar. Cho'michli konveyerlar haqida tushuncha. Cho'michli konveyerlarning sxemalari. Cho'michli konveyerlarning turlari. Cho'michlarni yuklashi va to'kishi.

Xom-ashyoni yuvish mashinalari. Xom-ashyoni yuvishga qo'yiladigan talablar. Yuvish mashina va jihozlari. Yuvish mashina va jihozlarining turlari.

Konservalash asoslari. Qayta ishlash texnologik jarayonlari. Meva va sabzavotlarga dastlabki ishlov berish mashina va jihozlari. Konservalash usullari.

Sterilizator va pasterizatorlar. Sterilizatorlar va pasterizatorlar to'g'risida tushuncha. Sterilizatorlar va pasterizatorlar turlari. Ularning texnik tavsifi.

Metall kesuvchi stanoklar va ularning tasnifi. Metall kesuvchi stanoklarning mashinasozlikda tutgan o'rni. Metall kesuvchi stanoklarning tasnifi. Stanoklarning belgilanish sistemasi. Stanoklarning asosiy tarkibiy qismlari. Stanoklardagi harakat turlari.

Tokarlik stanoklari. Umumiy tushunchalar. Tokarlik guruhi stanoklarining asosiy tiplari. Tokarlik vintqirqar stanoklar va ularni sozlash. Tokarlik lobovoy va karusel stanoklari.

Parmalash va teshik kengaytirish stanoklari. Parmalash va teshik kengaytirish stanoklari guruhining umumiy xarakteristikasi. Stanoklarning asosiy tiplari. Vertikal va radial-parmalash stanoklari. Ko'p shpindelli, gorizonta-parmalash stanoklari.

Abraziv ishlov berish stanoklari. Abraziv ishlov berish stanoklari guruhining umumiy tavsifi. Guruh stanoklarining asosiy tiplari. Tashqi va ichki doiraviy hamda yassi jilvirlash stanoklari. Pardoqlash ishlari uchun xoninglash, superfinishlash stanoklari.

Avtomatik liniyalar, agregat stanoklari va dastur bo'yicha boshqariladigan stanoklar. Avtomatik liniyalar, ularning turlari, afzallik va kamchiliklari. Agregat stanoklari, ularning tarkibi, afzallik va kamchiliklari. Dastur bo'yicha boshqariladigan stanoklar. Ko'p operatsiyali (ko'p maqsadli) stanoklar.

3. TEXNOLOGIK JIHOZLARNI HISOBLASH VA KONSTRUKTSIYALASH FANI

Texnologik jihozlarni loyihalashning umumiy printsiplari. Mashinasozlikda standartlashtirish hajmi va tarkibi. Yagona sistemalar: konstruktorlik hujjatlari (ESKD); ishlab chiqarishni texnik tayyorlash (ESTPP); material va buyumlarni korroziya va eskirishdan himoyalash (ESZKS). Sistemalar: mahsulot sifat ko'rsatkichlari (SPKP), mehnat xavfsizligi standartlari (SSBT). «Davlat texnika nazorati»ining me'yor va talablari. Konstruktorlik faoliyatida me'yor-texnik hujjatlarning ahamiyati. Nostandart texnologik jihozlarni yaratishning asosiy bosqichlari; TZ, TP, EP, KD. Hisoblash turlari, texnologik jihozlarni texnologik va mustahkamlikka hisoblashning asosiy maqsadi va vazifalari.

Texnologik jihozlarni loyihalash uslublarining asoslari, loyihalashtirishda sistematik yondashish elementlari, konstruktorlik faoliyatining psixologik tomonlari. SAPR vositasida optimal konstruktsiyalarni yaratish tushunchasi: ma'lumotlar banki, matematik modellari, grafa qurishlar. Sanoat mashina va jihozlarida ishlatiluvchi asosiy konstruktsion materiallar, ularning turlari. Yangi va kelgusida ishlatiluvchi materiallar.

Mashina va apparatlar konstruktsiyasiga konstruktsion materiallar va tayyorlash texnologiyasining ta'siri. Rangli metallar va qotishmalardan quyma, payvandlangan, emal qoplangan, bimetall, gumiri allangan, keramik, uglegrafit, shisha apparatlarni loyihalashning o'ziga xos tomonlari.

Yupqa devorli idish va apparatlar. Asosiy ma'lumotlar. Appartlarni tuzilishi, hisobi va tekshirish bo'yicha umumiy ma'lumotlar. Ishchi, hisobiy va tekshiruv bosimlari. Ishchi va hisobiy temperaturalar. Qayta ishlanayotgan muhitning korrozion ta'siri va material xossalarini e'tiborga oluvchi ruxsat etilgan kuchlanish. Payvand va kovsharlangan birikmalarning mustahkamlik koeffitsientlari. Apparat qalinligiga qo'shiluvchi hisobiy kattaliklar.

Ichki bosim ostidagi yupqa devorli qobiqlar. Qobiqlar haqida umumiy ma'lumotlar. Asosiy tushunchalar. O'qqa nisbatan simmetrik, biki qobiq materialining kuchlanishi. Qobiqlarning momentsizlik nazariyasi. Mustahkamlik sharti. Bartovka qilingan qonussimon va sferik qobiqlarni hisoblashning xos tomonlari. Hidrostatik bosim ostidagi qobiqni hisoblash.

Tashqi bosim ostidagi yupqa devorli qobiqlar. Ta'sir etuvchi moment, bo'ylama va ko'ndalang kuch ostidagi yupqa devorli qobiqlar. Yupqalanish ostidagi qobiqni hisoblash. Muvozanat tushunchasi. Mahalliy va umumiy muvozanat. Qisqa tsilindrik qobiqni hisoblash. Qisqa qobiqni hisoblashda devorning optimal qalinligini aniqlash. Optimallik kriteriysi. Qobiqning hisobiy uzunligi. Qattiqlik xalkalari. Buylama kuch va etuvchi moment ta'siridagi qobiqni

muvozanatga hisoblash. Sferik, elliptik va konussimon tagliklarning muvozanati.

59. Texnik jihatidan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasi va ekspert kengashining xuquq va majburiyatlari.
60. Texnik reglament loyxasini ishlab chiqish tartibi.
61. Maxsulotlar xavfsizligini ta’minlashda texnik reglamentlarning o‘rni.
62. Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarning yagona tasniflash va kodlash tizimi
63. Standartlashtirishning nazariy asoslari.
64. Standartlashtirishning metodologik uslubiy asoslari.
65. Kompleks va ilgari tanima standartlashtirish usullari.
66. Standart, o‘zaro almashinuvchanlik, tushunchasi va ularning turlari hamda vazifalari.
67. Qo‘nim va quyimlar tizimini va ularning standartlashtirishdagi ahamiyati.
68. Sifatni boshqarish
69. Mahsulot sifatining mohiyati.
70. Mahsulot sifatini boshqarish mezonlari.
71. Sifat xarajatlari
72. Mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari klassifikatsiyasi
73. Mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari tasnifi.
74. Mahsulot sifatini boshqarishning asosiy funksiyalari.
75. Mahsulot sifatini rejalashtirish mohiyati va tamoyillari.
76. Sifatni boshqarish fazasi.
77. Mahsulot sifatini shartnoma va kontraktlarda rejalashtirish.
78. Sifat nazorati subektlari.
79. Korxonalarda sifat nazorati bo‘linmalarining roli va vazifalari.
80. Sifatni baholash va nazorat qilish xarajatlarini hisobga olish.
81. Sifat qoniqarsiz nazorat qilinganida ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar va zararlar
82. Korxonada brakning oldini olish tizimi.
83. Mahsulotni ishlab chiqish bosqichida sifat nazorati.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
Namangan muhandislik-qurilish
instituti rektori
Sh.Ergashev
“4” 21 2023 y.

05.07.01 - Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari.
Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini
mexanizatsiyalashtirish ixtisosligi bo‘yicha
tayanch doktoranturaga kirish uchun mutaxassislik
fanlaridan imtixon

DASTURI

Namangan – 2023

Tuzuvchilar:

1. R.X.Muradov–Namangan muhandislik-qurilish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrası mudiri, dotsent, PhD.
2. N.G‘.Boyboboev–Namangan muhandislik-qurilish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrası professori, t.f.d.
3. G.Payziyev-Namangan muhandislik-qurilish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrası dotsenti, t.f.n.
4. S.Temirov-Namangan muhandislik-qurilish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrası dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

1. T.S.Xudoyberdiyev–Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, t.f.d., prof.
2. A.S.Polvonov–Namangan muhandislik-qurilish instituti “TVM” kafedrası dotsenti, t.f.n.

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2023 - yil “03” - noyabrdagi 4 - sonli bayonnomasi)

KIRISH

Mazkur dastur «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizasiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar asosida tayyorlangan.

Dastur quyidagi qarorlar, yo'nalishlar va masalalarni qamrab olgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, yangi texnika vositalarini ishlab chiqish va yetkazib berishga qaratilgan qarorlari;

O'zbekiston qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash jarayonlarini kompleks rivojlantirishning umumiy konsepsiyalari;

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizasiyalash bo'yicha mashinalar tizimi;

Ish unumi va sifatini oshirish, energiya-resurstejamkorlikni ta'minlash.

Mazkur dasturni tuzishda quyidagi fanlar manbaalari asos qilib olingan:

1. Qishloq xo'jaligi mashinalari;
2. Qishloq xo'jaligi mashinalari nazariyasi va hisobi;
3. O'rim-yig'im mashinalari nazariyasi va hisobi;
4. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish mashinalari nazariyasi va loyihalash;
5. Ozuqa va g'alla yig'ishtirish mashinalari nazariyasi va loyihalash;
6. Ekinlarni parvarishlash mashinalarining ilmiy asoslari;
7. Melioratsiya mashinalari nazariyasi va hisobi.

ASOSIY QISM

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

"Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan ustuvor yo'nalishlar.

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.

Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizasiyalash sohasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan agrar siyosat.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalashning hozirgi ahvoli va uning rivojlanish istiqbollari.

O‘zbekiston hukumatining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish borasidagi amalga oshirayotgan chora-tadbirlari.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash va elektrlashtirish jarayonlarini kompleks rivojlantirishning umumiy konsepsiyalari.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizasiyalashda mashinalar tizimining o‘rni.

Agrotexnika talablari va ularning qishloq xo‘jaligi hamda meliorasiya mashina va qurollarining yangi konstruksiyalarini ishlab chiqishdagi ahamiyati.

Ekologiya, resurs va quvvat tejash muammolari.

Qishloq xo‘jaligi va meliorasiya ishlarida qo‘llaniladigan asosiy energetik vositalar

Traktor va avtomobillar, ularning qo‘llanilishi va sinflanishi. Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan traktorlarning tortish xarakteristikasi.

Dvigatellarning ishlashi, umumiy tuzilishi va sinflanishi. Traktor va kombayn dvigatellarining asosiy ko‘rsatkichlari va parametrlari. Dvigatellarning rostlovchi va zo‘riqtiruvchi xarakteristikalari. Quvvat balansi.

Traktor, avtomobil va o‘ziyurar qishloq xo‘jaligi va meliorasiya mashinalarining kuch uzatish va yurish qismlari xarakteristikasi hamda ularning ekspluatasion ko‘rsatkichlarga ta‘siri.

G‘ildirakli va zanjirli traktorlarning to‘liq va tortishdagi foydali ish koeffitsiyenti. Tortishdagi foydali ish koeffitsiyentining ayrim tashkil etuvchilari va uni aniqlash uslubi va unga ta‘sir qiluvchi omillar. Quvvat olish vali bilan ishlayotgan traktor tortish xarakteristikasining o‘ziga xos jihatlari.

Qishloq xo‘jaligi va meliorasiya mashinalarining manyovrchanligi. Traktor va boshqa energetik bazalarning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakatlanishining ustuvorlik muammolari. Qishloq xo‘jalik agregatlarini avtomatik boshqarish.

Traktor gidroo‘rnatma tizimi va uning o‘ziga xos jihatlari. Traktor va o‘rnatma qishloq xo‘jaligi va meliorasiya qurollarining o‘zaro ta‘sir kuchini aniklash.

Tuproqqa asosiy ishlov berish mashinalari

Tuproqning fizik va texnologik xususiyatlari. Tuproq qattiqligi, strukturasi, shudgorlashdagi solishtirma qarshiligi va yopishqoqligi. Tuproqqa ishlov berishning texnologik operatsiyalari va jarayonlari. Ag'darish, yumshatish, zichlash, tekislash. Tuproqqa zamonaviy ishlov berish usullari.

Tuproqqa asosiy ishlov beruvchi mashinalar va ularni ish organlarining umumiy nazariyasi. Ponaning xususiyatlari. egri sirtli pona, ikki va uch yonli pona va ularning xususiyatlaridan foydalanish.

Pluglar va ularga qo'yiladigan agrotexnik talablar. Plug tasnifi. Korpus turlari. Ag'dargichli, ag'dargichsiz, universal, tezkor, o'yiq, qurama va disksimon korpuslar. Tuproq turi va holatiga moslab korpuslarni tanlash. Korpus qismlari. Lemex, ag'dargich, tirak taxtasi, korpus ustuni. Plug pichoqlari. Disksimon, chopqisimon, yassi pichoqlar. Chimqirqar va burchakkesar. Plug korpusining tuproq palaxsasini ag'darish jarayoni.

Shudgorlashdagi joiz bo'lgan chuqurlik va uni aniqlash. Shudgorlash agregatini ishlatish. Shudgorlash agregatining harakatlanish tartibi.

Tirkalma pluglar. Tirkalma plugni sozlash. Osma pluglar. Osma plugni shudgorlash chuqurligiga o'rnatish. Osma plugdan foydalanish. Maxsus pluglar. Yarusli pluglar, ularning ish jarayoni. Korpus ishchi sirtini qurish. Yo'naltiruvchi egri chiziqni qurish. Yasovchilarni shudgor devoriga engashish burchaklarining o'zgarish qonuniyati. Korpus qolip chiziqlarini qurish. Korpus yoyilmasining andozasini qurish. Tezkor va vinsimon korpuslar. Vinsimon korpus sirtini qurish. Plugga ta'sir etuvchi kuchlar va dala taxtasining hisobi.

Plugni sudrashga qarshiligi, uni kamaytirish yo'llari. Akademik Goryachkinning rasional formulasi va uning koyeffisiyentlarini tajriba yo'li bilan aniqlash. Qarshilik kuchining soddalashtirilgan formulasi.

Plugning foydali ish ko'effisiyenti.

Agregat tezligining shudgorlashda sarflanadigan quvvat miqdoriga ta'siri. Qarshilik kuchining o'zgaruvchanligi. Korpusga ta'sir etuvchi kuchlar. Plugning ravon harakati.

Plug parametrlarini asoslash. Agregatning bo'ylama turg'unligi. Chuqur yumshatkichlar va chizelli pluglar, ularning parametrlarining nazariy va amaliy asoslari.

Tuproqqa sayoz ishlov berish mashinalari

Tuproqqa sayoz ishlov beruvchi mashinalar va ular ishchi organlarining umumiy nazariyasi. Tirmalar. Tirma ishiga qo'yiladigan agrotexnik talablar. Tirma tishlarini joylashtirish.

Disksimon qurollar va ularning afzalliklari.

Disksimon tirmalar. Disksimon sayozyumshatgichlar. Disklarning asosiy parametrlari.

G'ildirak va g'ildiraksimon zichlovchi qurollar. G'ildirak turlari. G'ildirakning yumalanish rejimlari. G'ildirakka ta'sir etuvchi kuchlar.

Tuproqqa minimal ishlov beruvchi mashinalar. Tuproqqa ishlov beruvchi tezkor mashinalarning o'ziga xos jihatlari. Faol ishchi qismli mashinalarning umumiy nazariyasi, ishlash prinsipi, ko'llanilishi. Freza pichog'ining trayektoriyasi. Freza ishining sifat ko'rsatkichlari va afzalliklari.

Chizel-kultivatorlar. Ularga ta'sir etuvchi kuchlar. Tokzor kultivatori. Kombinasiyalashgan agregatlar.

Tuproqqa ishlov beruvchi mashina va qurollarni rivojlanish istiqbollari.

O'g'itlash mashinalari

Mineral va mahalliy o'g'itlarning asosiy turlari va ularning xususiyatlari.

O'simliklarni himoyalashning kimyoviy va biologik usullari.

O'g'itlardan foydalanish texnologik jarayoniga ko'yiladigan agrotexnika talablari.

Mineral va mahalliy o'g'it solish usullari, ularning bir tekisda taqsimlanishiga ta'sir quluvchi omillar. O'g'itlarning fizik-mexanik xususiyatlari. O'g'itlarning taqsimlanish nazariyasi. O'g'itlarni taqsimlash mashinalari.

Shudgorlashdan oldin, chigit ekish bilan bir paytda va ekish bilan birga hamda g'o'zani oziqlantirishda mineral va mahalliy o'g'itlarni sepishda ishlatiladigan o'g'itlagich mashinalarining turlari. O'g'itlash mashinalari ishchi organlarining nazariyasi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida o'g'itlardan foydalanishda sanoat uslublarini qo'llash istiqbollari.

Ekish va ko'chat o'tqazish mashinalari

Urug' ekish va ko'chat o'tkazish usullari. ekuvchi va ko'chat o'tkazuvchi mashinalarning texnologik jarayoni. Donalab, uyalab va aniq ekish texnologiyalari.

Seyalka va ko'chat o'tkazishuvchi mashinalarga ko'yiladigan agrotexnika talablari. Urug' ekish va ko'chat o'tqazish texnologiyalarini baholash. Seyalka va ko'chat o'tkazish mashinalari va ularning ish qismlari, texnologik ishlash jarayoni va konstruksiyasi.

Seyalka va ko'chat o'tkazish mashinalar ishchi qismlarining nazariyasi va hisobi. ekuvchi mashina soshnigining muvozanat sharti.

Seyalka va ko'chat o'tkazish mashinalarni ekkichining ravon harakatlanishi, ularni ishga tayyorlash va agregatlash.

Ekinlarni parvarishlash va o'simliklarni himoyalash mashinalari

Chopiq kultivatorlari va uning ishchi qismlari. Chopiq kultivatoriga qo'yiladigan agrotexnik talablar. Chopiq kultivatorlarining tuzilishi. Chopiq kultivatori ishchi qismlarining asosiy parametrlari. Chopiq kultivatorini ishchi qismlarining qator oralig'iga joylashtirish sxemalari. G'o'za kultivatorilari ishchi qismlarini bir xil chuqurlikda ishlashini ta'minlash.

O'simliklarni kimyoviy himoyalashda texnika havfsizligi va atrof-muhit himoyasi. O'simliklarni himoyalash usullari. Agrotexnik talablar. Kimyoviy moddalardan foydalanish usullari. Kimyoviy moddalar to'g'risida ma'lumotlar.

O'simliklarni himoyalash qilishda qo'llaniladigan mashina va qurilmalarning sinflanishi. Kimyoviy himoyalashda ishlatiladigan mashinalarining tuzilishi va ish jarayoni.

Purkash nazariyasi. Changlatish nazariyasi. Purkash va changlatishda ayerodinamika qonuniyatlari. Purkagich ishida eritmani parchalash darajasining samaradorlikka ta'siri. Kimyoviy himoyalash mashinasining asosiy qismlari va texnologik ish jarayoni. Suyuqlikni parchalash nazariyasi va parchalovchi uchlikni tanlash.

Purkash qurilmalari. Ayerozol generatori. Gerbisid purkagichlar.

Kombinasiyalashtirilgan mashina va agregatlar

Kombinasiyalashtirilgan agregatlarni yaratishning asosiy prinsiplari. Kombinasiyalashtirilgan agregatlarda turli ishchi qismlarni birgalikda qo'llash imkoniyatlari.

Kombinasiyalashtirilgan mashina va agregatlarning turi. Ish jarayonlarini uyg'unlashtiruvchi kombinasiyalashgan agregatlarning texnik-iqtisodiy afzalliklari.

Meliorasiya mashinalari. Sug'orishni mexanizasiyalash

Meliorativ mashinalarning turlari. Yerlarni dastlabki o'zlashtirish mashinalari, turlari, tuzilishi va texnologik jarayoni. Yer kovlash mashinalari: buldozer, skreper, ekskavator. Yer tekislash mashinalari: greyder, uzun bazali tekislagich, lazerli tekislagich.

Sug'orish tizimlari. Sug'orish manbalari. Ko'chma quvurlari qismlarga ajraladigan yomg'irlatish mashinalari. Ikki konsolli va ko'prik tizimli yomg'irlatish agregatlari. Ko'p tayanchli yomg'irlatish mashinalari. Qo'zg'almas yomg'irlatish va tomchilab sug'orish tizimlari. Tuproq yuzasidan, tuproq tagidan sug'orish vositalari.

Yem-xashak ekinlarini yig'ishtirish mashinalari

Ozuqa yig'ishtirish texnologiyalari. Ozuqa yig'ishtirishga qo'yiladigan asosiy talablar. Ozuqa xususiyatlari, fizik-mexanik xossalari. Yem-xashak yig'ishtirish texnologiyalarini baholash.

Yem-xashak yig'ishtirish mashinalari kompleksi. Xashak yig'ish mashinalari ishchi qismlarining ishlash prinsipi. Tirakli va tiraksiz qirqish nazariyasi.

Poyalarni kesish tezligi. Kesuvchi tig'lar orasida poyaning qirqishga qisilib to'xtash sharti. Kesish jarayonida poyalarning egilishi. egilishdagi joiz bo'lgan kesish yuzasi. Pichoq siljish yo'li hisobi.

O't o'rgichlar, ularning turlari va ishchi qismlari.

Silos o'radigan kombaynlar. Ularga qo'yiladigan agrotexnik talablar. Silos o'radigan kombaynlarning ishchi qismlari. Maydalovchi apparatlar va ularning tuzilishi.

O'rish apparati harakat yuritmasining kinematikasi va dinamikasi. O'rish apparatlarida inersiya kuchini muvozanatlash. Pichoq kinematikasi. Kesuvchi juftlikning poya bilan o'zaro ta'siri. Kesish jarayonida pichoqqa ta'sir etuvchi kuchlar. Sirpanib kesishning qarshilikka ta'siri.

Pichan presslagichi, ularning ishlash prinsipi va nazariyasi.

G'alla yig'ishtirish mashinalari

G'alla yig'ishtirish texnologiyalari. O'rim-yig'imga qo'yiladigan asosiy talablar. Donli ekinlarning o'ziga xos fizik-mexanik xossalari. O'rim-yig'im texnologiyalarini agrotexnik baholash. O'rim-yig'im texnologiyasi va mexanizasiyalash voitalarining asosiy rivojlanish yo'nalishlari.

Boshqoli don ekinlarini o'rib-yig'ib oluvchi mashinalar kompleksi.

G'alla o'rish kombaynlari, ularning turi va asosiy parametrlari. G'alla kombaynlarining o'rish, yanchish va don tozalash kismida qo'llaniladigan ishchi organlarning turlari. Zamonaviy g'alla o'rish kombaynlarining texnologik ish jarayoni.

Kombayn o'rgichi va uning texnologik ish jarayoni. Kombayn o'rish apparatining hisobi.

Motovilo. Motoviloni sozlash. Motovilo kinematikasi. Motoviloning asosiy o'lchamlari va ish rejimi. Kombayn motovilosining poya bilan o'zaro ta'siri va uning hisobi.

Kombaynning qiya transporter, unda g'alla massasining yanchish apparatiga uzatilishi hisobi.

G'allani yanchib olishning fizik mexanik asosi. Yanchish apparati va uning sekundlik yanchish qobiliyatini.

Donlarning boshqodan ajralish sharti, baraban tezligini aniqlash.

Yanchish barabaning asosiy tenglamasi. Savag'ichli yanchish barabanining hisobi. Shtiftli yanchish barabanining hisobi.

Rotorli yanchish apparatining hisobi.

Yanchish barabani dekasining o'lchamlarini aniqlash. Yanchish barabani va uning dekasi orasidagi tirqish.

Donlarni somondan ajratish. Somon elagich nazariyasi. Somon elagich o'lchamlarini aniqlash.

Rotorli separatorlar va ularda donlarning somondan ajralish qonuniyatlari.

Donli tozalash. Ventilator hisobi va ularni tanlash. Jalyuzali g'alvir o'lchamlarini aniqlash.

Ventilator va g'alvir o'lchamlarini o'zaro bog'liqligini aniqlash.

Donning g'alvir jalyuzalaridagi harakati.

G'alla kombaynlari rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlari.

Paxta va boshqa tolali ekinlarni yig'ishtirish mashinalari

Paxta va boshqa tolali ekinlarni ekish va yig'ishni mexanizasiyalashda qo'llaniladigan mashinalar kompleksi.

Paxta va boshqa tolali ekinlarni yig'ish texnologiyasi.

Paxta va g'uzapoyaning fizik-mexanik xossalari.

Paxta terish mashinalari. Turlari, texnologik jarayoni, nazariyasi va hisobi. Vertikal va gorizonta shpindelli pata terish mashinalarining tuzilishi va ishlash jarayoni asoslari. Shpindelli baraban parametrlari. Terish apparati ish tirqishini kengligi. Shpindel o'lchamlari. Shpindelning harakat trayektoriyasi. Shpindelning

aylanish tezligi. Shpindel tishining paxtani ilintirib olishi. Paxta terish apparati ajratkichining ish ko'rsatkichlari. Paxta terish apparatini ko'tarayotgan mexanizmdagi kuchlar. Bunkerni ko'tarish mexanizmi ishining tahlili.

Ko'sak terish va ko'sak chuvish mashinalari, tuzilishi va texnologik ish jarayoni.

G'o'zapoyani yig'ish texnologik jarayoni, yig'ishtirish turlari. Mashinalarning turi, tuzilishi va ishlash prinsipi.

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun
05.07.01 - Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ixtisosligi bo‘yicha
mutaxassislik fanlaridan kirish sinovlarini baholash
ME’ZONI

1. Mutaxassislik fanlaridan kirish sinovlari yozma ish tarzda sinov savollariga javoblar yozish asosida o‘tkaziladi. Har bir savolnoma 5 ta savoldan iborat bo‘ladi.
 2. Yozma ishlar 0 baldan 100 balgacha baholanadi. Har bir savol maksimal 20 baldan baholanadi.
 3. Savolnomaning har bir savoli quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:
 - 15-20 ball, savol to‘la har tomonlama chuqur yoritilgan chizma sxemalar berilganshu savolning hamma pozitsiyalari yoritilgan xulosa berilgan, o‘z fikr mulohazasini erkin ifodalay olgan;
 - 10-15 ball, savol to‘la yoritilgan chizma va sxemalari berilgan savolda asosiy pozitsiyalar yoritilgan, xulosa berilgan;
 - 5-10 ball, savol qisman yoritilgan bo‘lib, umumiy fikrlar berilgan, asosiy pozitsiyalar yoritilgan, chizma va sxemalari berilmagan, xulosa berilgan;
 - 0-5 ball, savol qisman yoritilgan bo‘lib, chizma va sxemalar berilmagan, xulosalar berilmagan.
- Savolnomadagi 5 ta savolning yozilgan javoblariga qo‘yilgan ballar yig‘indisi asosida tayanch doktoranturaga kiruvchilarining ixtisoslik fanlaridan to‘plagan umumiy bali aniqlanadi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

NOMATIV-HUQUQIY XUJJATLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi [Farmoni](#).

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.

ASOSIY ADABIYOTLAR

4.Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi), T. “Barkamol fayz media”. 2018.

5.Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T.Cho‘lpon, 2012.

6.Gurevich A.M., Bolotov A.K., Sudnisin V.I. Konstruksiya traktorov i avtomobiley. M. “Agropromizdat”, 1989.

7. Karimov U. Traktor va avtomobillar dvigatellari nazariyasi. T. “Mehnat”. 1989.

8.Xudoyberdiyev T.S.. Traktor va avtomobillar nazariyasi hamda hisobi. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2005.- 210 b.

9.Shoumarova M. va Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009. – 505 b.

10.Shoumarova M., Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. Darslikning internetdagi nusxasi. – Toshkent, 2004 [WWW.DIT.sentr](http://WWW.DIT.sentr.Uz). Uz.

Shoumarova M., Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari.-T.:”O‘qituvchi”, 2002.-123-195-b.

11.Shoumarova M., Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalaridan praktikum.-T.:”O‘qituvchi”, 2010.-235-b.

12.Hamidov A. Qishloq xo‘jalik mashinalarini loyihalash. Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 248 b.

13.Abdillayev T., Shoumarova M. G‘alla kombayni va paxta terish mashinalari. – Toshkent, 1999.

14.Klenin N.I., Yegorov V.G. Selskoxozyaystvenniye i meliorativniye mashini. – M.: Kolos. 2005. – 464 s.

15. Mamatov F.M. Qishloq xo‘jalik mashinalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 338 b.

16.Mamatov F.M., Ergashev I.T. Qishloq xo‘jalik mashinalari.-Toshkent: Voris-Nashriyot, 2009. – 307 b.


QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

17. Fayziyev M.M. va boshqalar. Ichki yonuv dvigatellari. T. 2007.
18. Qodirov S.M., Nikitin S.Ye. Avtomobil va traktor dvigatellari. 1992.
19. Nikolayenko A.V. Teoriya, konstruksiya i raschet avtotraktorных dvigateley. M. "Kolos" 1984.
20. Komilov A.I. va boshqalar. Traktor va avtomobillar. 1-qism T. "Cho'lon", 2017.
21. Komilov A.I. va boshqalar. Traktor va avtomobillar. 2-qism T. "Talqin", 2018.
22. Selskoxozyaystvenniye i meliorativniye mashini. Pod obshchey red. prof. G.Ye. Listopada. M.: Agropromizdat, 1986g. - 688 s.
23. Karpenko A.N. Selskoxozyaystvenniye mashini. – M.: Agropromizdat, 1989. - 526 b.
24. Klenin N.I., Popov I.F., Sakun V.A. Selskoxozyaystvenniye mashini. Moskva, Kolos. 1970. - 455 b.

FOYDALI SAYTLAR

1. <http://www.nsu.ru/isem/grants/etfm/> ;
2. <http://www.lib.homelinux.org/math/>;
3. <http://www.eknigu.com/lib/mathematiss/>;
4. http://www.eknigu.com/info/M_Mathematiss/MS
5. <http://www.rsl.ru/> - Rossiyskaya gosudarstvennaya biblioteka;
6. <http://www.msu.ru/> - Moskovskiy gosudarstvenniy universitet;
7. <http://www.nlr.ru/> - Rossiyskaya natsionalnaya biblioteka;
8. <http://www.el.tfi.uz/pdf/enmsoq22.uzk.pdf> ;
9. <http://www.el.tfi.uz/pdf/enmsoq22.uzl.pdf> .
10. <http://vistor-safronov.narod.ru/systems-analysis/papers/to-quyestion-of-systems-analysis-development.html>.
11. <http://vistor-safronov.narod.ru/systems-analysis/papers/to-quyestion-of-systems-analysis-development.html>.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



**05.07.02 - qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalarini
ishlatish, tiklash va ta‘mirlash ixtisosligi bo‘yicha tayanch
doktoranturaga kirish uchun mutaxassislik fanlaridan
imtixon**

DASTURI

Namangan - 2023

Tuzuvchilar:

1. R.X.Muradov–Namangan muhandislik-qurilish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrası mudiri, dotsent, PhD.
2. N.G‘.Boyboboev–Namangan muhandislik-qurilish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrası professori, t.f.d.
3. G.Payziyev-Namangan muhandislik-qurilish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrası dotsenti, t.f.n.
4. S.Temirov-Namangan muhandislik-qurilish instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrası dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

1. T.S.Xudoyberdiyev–Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, t.f.d., prof.
2. A.S.Polvonov–Namangan muhandislik-qurilish instituti “TVM” kafedrası dotsenti, t.f.n.

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2023 - yil “03” - noyabrdagi 4 - sonli bayonnomasi)

KIRISH

Mazkur dastur «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar asosida tayyorlangan.

Dastur quyidagi qarorlar, yo'nalishlar va masalalarni qamrab olgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, yangi texnika vositalarini ishlab chiqish va yetkazib berishga qaratilgan qarorlari;

O'zbekiston qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash jarayonlarini kompleks rivojlantirishning umumiy konsepsiyalari;

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizatsiyalash bo'yicha mashinalar tizimi;

Ish unumi va sifatini oshirish, energiya-resurstejamkorlikni ta'minlash.

Mazkur dasturni tuzishda quyidagi fanlar manbaalari asos qilib olingan:

1. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi;
2. Qishloq xo'jaligi mashinalari nazariyasi va hisobi;
3. Ilmiy tadqiqot usullari va eksperimentlarni rejalashtirish;
4. Qishloq xo'jalik mashinalarida yangi texnik yechimlar;
5. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi;
6. Qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish va texnik servis asoslari;
7. Agroklasterlar faoliyati.

ASOSIY QISM

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

“Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan ustuvor yo‘nalishlar.

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.

Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizasiyalash sohasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan agrar siyosat.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalashning hozirgi ahvoli va uning rivojlanish istiqbollari.

O‘zbekiston hukumatining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish borasidagi amalga oshirayotgan chora-tadbirlari.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash va elektrlashtirish jarayonlarini kompleks rivojlantirishning umumiy konsepsiyalari.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizasiyalashda mashinalar tizimining o‘rni.

Agrotexnika talablari va ularning qishloq xo‘jaligi hamda meliorasiya mashina va qurollarining yangi konstruksiyalarini ishlab chiqishdagi ahamiyati.

Ekologiya, resurs va quvvat tejash muammolari.

Mashina-traktor parkidan foydalanish.

Mashina-traktor agregatlarining dinamikasi va energetikasi.

Qishloq xo‘jaligini zamonaviy yuqori quvvatli texnika vositalari bilan texnik qayta ta‘minlash masalalari.

Traktorlar, qishloq xo‘jalik mashinalari va jihozlarning ekspluatasion-texnik xususiyatlari.

Qishloq xo‘jaligi mashinalarini resurs va energiyatejamkorlik asoslari.

Tabiiy-iqlim sharoitlari va tezlik rejimlariga bog‘liq holda traktorlarning yuk tortish xususiyatlari va uning tejamkorligini o‘zgarishi.

Agregatning quvvat balansi va uning tahlili.

Traktorning yuk tortish, to‘liq va shartli foydali ish koyeffisiyenti.

Agregatlarning yuk tortish dinamikasini oshirish yo'llari. Agregatlarning dinamikasi va energetikasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash usullari va ularning tahlili.

Yenergetik qurilmalarni ekspluatasion xarakteristikalarini.

Agregatlarning tuzilishi va tarkibini hisoblash usullari.

Traktor dvigatelining yuklanish darajasi (koyeffisiyenti). O'zgaruvchan rejimlar sharoitida optimal yuklanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar.

Tashqi sharoitlarni hisobga olgan holda agregatlarning optimal tezligi va tortish rejimlarini aniqlash. ekspluatasiya sharoitlarida tezlik rejimlaridan rasional foydalanish.

Traktorlar, o'ziyurar mashinalar va agregatlarning asosiy parametrlarini aniqlash usullari va nazariy asoslari.

Harakatdagi agregatlarning kinematikasi.

Agregatlarning kinematik xarakteristikalarini. Agregatlarni ishlatish uchun dalalarni tayyorlash.

Agregatlarning nazariyasi va texnologiyasi. Harakat usullari, klassifikatsiyasi, ularni agrotexnik baholash, amalga oshirish yo'llari, yuritish usullarini tanlash.

Agregatlarni yakka tartibda va guruh bo'yilib tarzida ishlatish uchun paykalning optimal va minimal kengligini hisoblash.

Agregatlarning ish unumi.

Harakatchan va stasionar agregatlarning ish unumi va vaqt balansini hisoblash. Ularning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar tahlili va nazariy asoslari.

Texnologik tizim va texnologik komplekslarda ishlaydigan mashinalarning ish unumini hisoblash yo'llari. Me'yor hosil qiluvchi omillarning o'rtacha qiymatlarini aniqlash va mashinalarning umumiy bajargan ishini hisoblashning nazariy asoslari va amaliy usullari. Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishi sharoitida mashina va agregatlarning ish unumini oshirish yo'llari. Keng qamrovli va kombinatsiyalashtirilgan agregatlarni qo'llash asoslari.

Mashina-traktor parklari faoliyatida ishlatishda yoqilg'i moylash materiallari va texnik suyuqliklarda samarali foydalanish.

Dvigatellar va mashinalarning ishonchlilik va mustahkamligiga yoqilg'i moylash materiallari sifatining ta'siri. Qishloq xo'jalik texnikalarida qo'llaniladigan neft mahsulotlarining assortimenti va qisqacha xarakteristikasi.

Traktorlar va o'ziyurar mashinalardan foydalanishda motor moylari sifatini o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Motor moyining sifati, mashinani ishlatish sharoitlari, texnik holati va dvigatellarning qolgan motoresursini baholash ko'rsatkichlari.

Qo'llaniladigan yoqilg'i moylash materiallaridan foydalanish sifatini oshirish yo'llari. Qo'llaniladigan neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish. Yoqilg'i moylash materiallaridan oqilona va tejimli foydalanish - zamonaviy qishloq xo'jalik texnikasining samarasini oshirishning omili.

Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish.

Qishloq xo'jaligida mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning kompleks tizimi.

Texnik xizmat ko'rsatish davriyligi va traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari hamda jihozlar parametrlarining joiz bo'lgan og'ishini belgilash usullari. Parametrlarni joiz bo'lgan og'ishi, nazoratning davriyligi, buzilish ehtimoli va mashinaning tarkibiy qismi o'rtacha xaqiqiy resursi orasidagi bog'liqliklar.

Texnik diagnostika va mashinalarning ish qobiliyatini nazorat qilish asoslari.

Mashinalar holatining tarkibiy va diagnostik parametrlari, mashinalarning dvigatellari va boshka agregatlarini qismlarga ajratmasdan texnik holatini va qoldiq resursini oldindan aniqlash.

Mashinalar va jihozlarni diagnostika qilishning marshrut texnologiyasi.

Mashinalar, alohida uzellar hamda mexanizmlarni ish qobiliyati va texnik holatini nazorat qilish usullari va texnik vositalari.

Mashinalarni saqlash va yonilg'i quyishning nazariy va amaliy asoslari.

Neft xo'jaligini to'g'ri tashkillashtirish.

Mashinalarni saqlash va texnik xizmat ko'rsatishning moddiy-texnik bazasi. Uni loyixalash tartiblari.

Mashinalarning tashqi tomonlarini tozalash punktlari, texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari, neft omborlari va ularning jihozlari, mashina saroyi - injener-texnik kompleksning tarkibiy qismi.

Mashinalarga maxsus texnik xizmat ko'rsatish. Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish jarayonini modellashtirishda ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasini qo'llash.

Mashinalarga firmaviy texnik servis ko'rsatishning mohiyati va afzalliklari.

Firmaviy texnik servis tizimi, uning parametrlari, ko'rsatkichlari va samaradorligi.

Agregatlardan foydalanish samaradorligi.

Mashinalarning ekspluatasion xarajatlari, mashina va agregatlardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni asoslash.

Qishloq xo'jalik ishlarini bajarishda to'liq, samarali, texnologik, foydali energiya sarfi va ularning qiymatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Agregatning mexanik va energetik FIKlari va ularning tahlili.

Mashina hamda agregatlar ishlaganda mehnat sarflari va ularni kamaytirish yo'llari. Moddiy mablag'larning ekspluatasion xarajatlari va ularni kamaytirish yo'llari. Mashina-traktor agregatlari samaradorligini kompleks baholash.

Qishloq xo'jaligida mexanizasiyalashgan jarayonlarni loyihalash.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning industriallashtirilgan texnologiyasi asoslari va qishloq xo'jalik ishlarini kompleks mexanizasiyalash uchun mashinalar tizimi.

Mintaqaviy mashinalar tizimining nazariy asoslari va samaradorlik ko'rsatkichlari.

Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish va yig'ishtirib olishning mexanizasiyalashgan texnologiyasini loyihalash.

Operation texnologiya.

Muayyan operasiyani bajarish texnologiyasining nazariy asoslari va ularni qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish bo'yicha mexanizasiyalashgan ishlar. Sug'oriladigan yerlarda tuproqni himoyalashni dehqonchilik tizimida qo'llashi.

Texnologik joizliklar (dopusklar).

Ish sifatini boshqarish usullari.

Texnologik jarayonda transportni qo'llash. Ixtisoslashgan va muayyan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sharoitlarida transport vositalarini ishlatishning o'ziga xos xususiyatlari.

Qishloq xo'jaligida injener-texnik xizmat va mashinalar parkidan foydalanishni loyihalash.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini murakkab tizim sifatida modellashtirish.

Mashinalar parkining optimal tarkibini aniqlashning zamonaviy usullari.

Mashina-traktor parki tarkibini hisoblash va ishini loyihalashtirish.

Mashinalar ishonchliligi, tiklash va ta'mirlashning nazariy asoslari.

Ta'mirlash – xizmat ko'rsatish bazalari.

Ta'mirlash - xizmat ko'rsatish bazasining turlari, mamlakatimizda va xorij qishloq xo'jaligida ta'mirlash sohasini rivojlanishining qisqacha tahlili.

Mashinalar ishonchliligi.

Ishonchlilikning xususiy va kompleks ko'rsatkichlari. Uzoq muddatlilik, buzilmasdan ishlash, ta'mirboplik va saqlanuvchanlik.

Mashinalar ishonchliligining fizik xususiyatlari. Mashinalarning ish qobiliyatini buzilishi va ishonchliligining kamayish sabablari.

Mashina va jihozlarning texnik holatini baholash mezonlari. Ishqalanishning nazariy asoslari.

Ishonchlilik ko'rsatkichlarini aniqlashning matematik va ehtimoliy usullari.

Mashinalarning buzilishi va shikastlanishining tasodifiy hodisaligi, ularning sodir bo'lish mumkinligining ob'yektivligi.

Ishonchlilik nazariyalaridagi uzlukli (diskret) va uzluksiz tasodifiy kattaliklar, ularning taqsimot qonunlari va sonli tavsifnomalari.

Mashinalar ishonchliligining xususiy va kompleks ko'rsatkichlarini statistik baholash.

Mashinalarni ishonchlikka sinash.

Sinashning maqsadi. Mashinalarni ishonchlikka sinash rejalari va turlari.

Tiklangan detallarni va ta'mirlangan mashinalarni tezkor va imitasion sinashlar. Tezkor sinash usullari va vositalari.

Yeyilishga, chidamlilikka, toliqishiga va zanglashga qarshi sinashlar.

Mashinalar ishonchliligini sinash jarayonida ularning texnik xolatini va resursini tashxis (diagnostika)lash usullari va vositalari. Sinashni tashkil qilish.

Mashinalarning ishonchliligini oshirish usullari.

Mashinalar ishonchliligini konstruktiv-texnologik va ta'mirlash yo'llari bilan oshirish.

Mashinalarning ta'mirbopligini oshirish, detallar va yig'ma birikmalarning konstruksiyalarini takomillashtirish, ishqalanuvchi juftlar va detallarni moylash sharoitlarini tanlash yordamida detallarning yeyilishga chidamliligini oshirish.

Ishkalanishga bog'liq bo'lmagan buzilishlarning oldini olish.

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bazalari.

Ta'mirlash ustaxonalari va texnik xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tashkillashtirish va loyihalash asoslari.

Mashinalarni ta'mirlash turlari va usullari. Mashinalar va uskunalar ta'mirlashning turlari va davriyligi.

Tuman va muqobil mashina-traktor parklari va fermer xo'jaliklarining ta'mirlash-texnik servis bazalarini hisoblash asoslari. Ta'mirlash-texnik servis bazalarining strukturasi va ular elementlarining qisqacha tavsifnomasi.

Ta'mirlash - texnik xizmat ko'rsatish ishlari hajmini hisoblash. Markaziy ta'mirlash ustaxonalarining (MTU) yillik dasturini aniqlash usullari va agrosanoat majmuida ta'mirlash-texnik xizmat ko'rsatish ustaxonalarini tashkillashtirish va loyihalash asoslari. Ishlab chiqarish jarayonlarining asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash.

Ta'mirlash bazalarini loyihalashtirish va takomillashtirishning umumiy qoidalari.

Loyihalashtirish uchun kerak bo'lgan dastlabki materiallar. Loyihalashtirish va takomillashtirishga mo'ljallangan topshiriq. Loyihani ishlab chiqish tartibi va mazmuni. Loyihalashtirish bosqichlari.

Korxonada ishlab chiqarish jarayonlarining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash. Umumiy ish hajmini aniqlash va uni ish turlari bo'yicha taqsimlash.

Korxonalarining tarkibi, ish rejimi, vaqt fondlari, uskunalar, ishchilar soni hamda ishlab chiqarish va yordamchi maydonlarni hisoblash.

Ish joylarini barpo qilish. Ishlab chiqarish binosini gabarit o'lchamlarini aniqlash. Ishlab chiqarish binosida bo'limlarni joylashtirish tartibi (komponovkasi)ni ishlab chiqish.

Bosh reja. Tuman MTP va fermer xo'jaliklari ustaxonalari va texnik servis shaxobchalarining alohida bo'limlari va yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalarini loyihalashtirish va takomillashtirish.

Ishlab chiqarishni texnik tayyorlash va tashkillashtirish asoslari.

Mehnatga haq to'lashning xususiyatlari.

Remont ishlarini me'yorlashtirishning maqsadi va usullari.

Ishchilari va injener-texnik xodimlar mehnatiga haq to'lash sistemalari. Tarifli sistema.

Moddiy rag'batlantirish. Mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Ta'mirlash korxonalarida ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish.

Yordamchi xizmatlarni tashkil qilish.

O'lchov asboblari va zahira ombori, transport bo'limlarini tashkil qilish asoslari.

Ta'mirlash sifatini boshqarishni tashkillashtirish. Texnik nazorat tizimlari, turlari va usullari. Ta'mirlash jarayonining ayrim bosqichlarida nazoratni tashkillashtirish.

Ta'mirdan chiqarilgan ob'yektlarning sifati va ishonchliligini oshirish yo'llari.

Mahsulot sifatini boshqarishning kompleks tizimi.

Korxonalarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash.

Asosiy ishlab chiqarish va aylanma ishlab chiqarish fondlarini hisoblash.

Tannarx, foyda, rentabellik, kapital mablag'lar samaradorligi, o'z-o'zini qoplash va boshqa ko'rsatkichlarni hisoblash.

Xo'jalik ustaxonalarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Mashina va uskunalarni ta'mirlash ishlab chiqarish jarayonlari.

Mashinalarning konstruktiv yig'ma elementlari.

Mashinalarni ta'mirga qabul qilish va ularni saqlash.

Mashinalarni ta'mirga tayyorlash. Ta'mir oldi tashxisi, uning maqsadi va mazmuni.

Mashinalarni ta'mirga qabul qilish. Texnik talablar va hujjatlar.

Mashinalarni tozalash-yuvish, qismlarga ajratish.

Mashinalarni tozalash. Kir (chirk) mahsulotlarining turlari va tavsifi. Tozalashning ahamiyati va uning ta'mirlash sifatiga ta'siri. Kir mahsulotlarini tozalash usullari (mexanik va suyuqliklar yordamida).

Yig'ma birikmalar va detallarni tozalashning texnologik jarayonlari, ko'p bosqichli tozalash. Tozalash jarayonlarini jadallashtirish yo'llari.

Mashina va agregatlarni bo'laklarga (qismlarga) ajratish ketma-ketligi. Mashinalarni bulaklarga ajratishning umumiy qoidalari.

Tozalash - yuvish va qismlarga ajratish texnologik jarayonlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish.

Mashina detallari nuqsonlarini aniqlash, jamlash va yig'ish.

Detal nuqsonlarini aniqlashga doir asosiy talablar. Detallar nuqsonlarini aniqlash usullari.

Mashina detallarini jamlash. Jamlash usullari va o'ziga xos xususiyatlari.

Mashina qismlari, uzal agregatlarini yig'ish. Mashinani umumiy yig'ish. Yig'ish ishlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish.

Mashinalarni chiniqtirish, sinash va bo'yash.

Chiniqtirish va sinashning ahamiyati. Mashinani chiniqtirish va sinash texnologiyasi.

Chiniqtirish va sinashni jadallashtirish yo'llari.

Yuzalarni bo'yashga tayyorlash. Bo'yoq ashyolari va qo'llaniladigan uskunalari. Bo'yash va quritish usullari. Bo'yash sifatini nazorat qilish.

Mashina detallarini tiklash texnologik jarayonlari.

Mashina detallarini tiklash usullari.

Detailarni bosim ostida plastik deformatsiya yo'li bilan tiklash. Usulning mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari va qo'llash soxalari.

Cho'ktirish, botirish, cho'zish, kengaytirish, toraytirish, to'g'rilash, elektromexanik ishlov berish va pardozlash.

Qo'lda payvandlash va eritib (suyuqlantirib) qoplash. Qo'lda payvandlash va eritib qoplashning afzalliklari va kamchiliklari.

Mexanizasiyalashtirilgan usulda payvandlash va eritib qoplash usullari. Flyus qatlami ostida himoyalovchi gazlar muhitida (karbonat angididi, azot, argon, bug' va boshqa) kukunli sim bilan, elektrotebranmayoyli sovituvchi va himoyalovchi suyuqlik muhitida eritib va plazmali - yoyli qoplash usullarning afzalliklari, kamchiliklari va qo'llanish sohalari.

Mashina detallarni metallash va termik purkash yordamida tiklash. Metallash turlari, jarayonning afzalliklari va kamchiliklari. Detailarni metallash va termik purkash texnologik jarayoni, qo'llaniladigan uskunalar. Jarayonni bajarishda hayot faoliyati havfsizligi qoidalari.

Detailarni polimerlar (sintetik ashyolar) yordamida tiklash. Detailarni tiklashda qo'llaniladigan polimer ashyolarning fizik-mexanik xususiyatlari. Reaktoplastlar va termoplastlar. Korpus detallaridagi darzlarni, qo'zg'almas birikmalarni tiklashning texnologiyasi.

Detailarni boshqa usullarda tiklash. Darzli joylarga figurali kirgizmalar bilan ishlov berish. Rez'kali birikmalarni spiral (spiral kirgizmalar) o'rnatish va boshqa usullar bilan tiklash. Tiklanadigan detallarga yo'nish vositasi yordamida ishlov berish (pardozlash). Qo'llaniladigan jihoz va uskunalar.

Kavsharlash va uni qo'llanish soxalari. Kavsharlashda ishlatiladigan kavshar materialari va flyuslar. Detailarni kavsharlashga tayyorlash xususiyatlari.

Namunaviy agregatlar, detallar va ularning elementlarini tiklash. Transmissiya detallarini va zanjirli traktorlarning yurish qismlari, dvigatellari, qishloq xo'jalik mashinalari ishchi qo'rilmalari (lemexlar, panja, disklar, shpindellar, pichoqlar va boshqalar)ni tiklash; bazaviy detallarning yeyilishi (bloklar, korpuslar, tirsakli vallar va boshqalar) va ularning geometrik o'lchamini buzilishining agregatlar va mashinalarning ishlashi va resursiga ta'siri.

Bazaviy detallarni ta'mirlash texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Kabinalar, karkasli detallar, rezinotexnik va polimer ashyolardan yasalgan buyumlardagi nuqsonlarni ta'mirlash orqali bartaraf etish usullari.

Detailarni qayta tiklashning maqbul usulini aniqlash. Detailarni qayta tiklashning maqbul usulini tanlashning mohiyati, tanlash mezonlari va tartibi.

Ta'mirlanadigan mashinalarning sifatini va ishonchligini baholash.

Mashinalarning sifat ko'rsatkichlari va ularni aniqlash usullari. Mashinalarning sifat darajasini baholash usullari.

Qishloq xo'jalik texnikalarini sifati va puxtaligini oshirish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi.

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun 05.07.02 - Qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikalarini ishlatish, tiklash va ta'mirlash ixtisosligi bo'yicha mutaxassislik fanlaridan kirish sinovlarini baholash

ME'ZONI

1. Mutaxassislik fanlaridan kirish sinovlari yozma ish tarzda sinov savollariga javoblar yozish asosida o'tkaziladi. Har bir savolnoma 5 ta savoldan iborat bo'ladi.
 2. Yozma ishlar 0 baldan 100 balgacha baholanadi. Har bir savol maksimal 20 baldan baholanadi.
 3. Savolnomaning har bir savoli quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:
 - 15-20 ball, savol to'la har tomonlama chuqur yoritilgan chizma sxemalar berilganshu savolning hamma pozitsiyalari yoritilgan xulosa berilgan, o'z fikr mulohazasini erkin ifodalay olgan;
 - 10-15 ball, savol to'la yoritilgan chizma va sxemalari berilgan savolda asosiy pozitsiyalar yoritilgan, xulosa berilgan;
 - 5-10 ball, savol qisman yoritilgan bo'lib, umumiy fikrlar berilgan, asosiy pozitsiyalar yoritilgan, chizma va sxemalari berilmagan, xulosa berilgan;
 - 0-5 ball, savol qisman yoritilgan bo'lib, chizma va sxemalar berilmagan, xulosalar berilmagan.
- Savolnomadagi 5 ta savolning yozilgan javoblariga qo'yilgan ballar yig'indisi asosida tayanch doktoranturaga kiruvchilarining ixtisoslik fanlaridan to'plagan umumiy bali aniqlanadi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI NORMATIV-XUQUQIY HUJJATLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi [Farmoni](#).

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.

ASOSIY ADABIYOTLAR

4.Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi), T. “Barkamol fayz media”. 2018.

5.Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T.Cho‘lpon, 2012.

6.Gurevich A.M., Bolotov A.K., Sudninin V.I. Konstruksiya traktorov i avtomobiley. M. “Agropromizdat”, 1989.

7. Karimov U. Traktor va avtomobillar dvigatellari nazariyasi. T. “Mehnat”. 1989.

8.Xudoyberdiyev T.S.. Traktor va avtomobillar nazariyasi hamda hisobi. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2005.- 210 b.

9.Shoumarova M. va Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009. – 505 b.

10.Shoumarova M., Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. Darslikning internetdagi nusxasi. – Toshkent, 2004 www.dit.sentr. Uz.

Shoumarova M., Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari.-T:.”O‘qituvchi”, 2002.-123-195-b.

11.Shoumarova M., Abdillayev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalaridan praktikum.- T:.”O‘qituvchi”, 2010.-235-b.

12.Hamidov A. Qishloq xo‘jalik mashinalarini loyihalash. Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 248 b.

13.Abdillayev T., Shoumarova M. G‘alla kombayni va paxta terish mashinalari. – Toshkent, 1999.

14.Klenin N.I., Yegorov V.G. Selskoxozyaystvenniye i meliorativniye mashini. – M.: Kolos. 2005. – 464 s.

15. Mamatov F.M. Qishloq xo‘jalik mashinalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 338 b.

16.Mamatov F.M., Ergashev I.T. Qishloq xo‘jalik mashinalari.-Toshkent: Voris-Nashriyot, 2009. – 307 b.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

17. Fayziyev M.M. va boshqalar. Ichki yonuv dvigatellari. T. 2007.
18. Qodirov S.M., Nikitin S.Ye. Avtomobil va traktor dvigatellari. 1992.
19. Nikolayenko A.V. Teoriya, konstruksiya i raschet avtotraktorных dvigateley. M. "Kolos" 1984.
20. Komilov A.I. va boshqalar. Traktor va avtomobillar. 1-qism T. "Cho'lpon", 2017.
21. Komilov A.I. va boshqalar. Traktor va avtomobillar. 2-qism T. "Talqin", 2018.
22. Selskoxozyaystvenniye i meliorativniye mashini. Pod obshchey red. prof. G.Ye. Listopada. M.: Agropromizdat, 1986g.- 688 s.
23. Karpenko A.N. Selskoxozyaystvenniye mashini. – M.: Agropromizdat, 1989.- 526 b.
24. Klenin N.I., Popov I.F., Sakun V.A. Selskoxozyaystvenniye mashini. Moskva, Kolos. 1970.-455 b.

FOYDALI SAYTLAR

1. <http://www.nsu.ru/sem/grants/etfm/> ;
2. <http://www.lib.homelinux.org/math/>;
3. <http://www.eknigu.com/lib/mathematiss/>;
4. http://www.eknigu.com/info/M_Mathematiss/MS
5. <http://www.rsl.ru/> - Rossiyskaya gosudarstvennaya biblioteka;
6. <http://www.msu.ru/> - Moskovskiy gosudarstvenniy universitet;
7. <http://www.nlr.ru/> - Rossiyskaya natsionalnaya biblioteka;
8. <http://www.el.tfi.uz/pdf/enmsoq22.uzk.pdf> ;
9. <http://www.el.tfi.uz/pdf/enmsoq22.uzl.pdf> .
10. <http://vistor-safronov.narod.ru/systems-analysis/papers/to-quyestion-of-systems-analysis-development.html>.
11. <http://vistor-safronov.narod.ru/systems-analysis/papers/to-quyestion-of-systems-analysis-development.html>.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”

Namangan muhandislik-qurilish
instituti rektori

Sh.Ergashev

“ 4 ” 11 2023-yil

**05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun
mutaxassislik fanlaridan imtixon**

DASTURI

Namangan-2023

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish institutining “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

1. A. To‘xtabaev – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida mudiri. t.f.n., dotsent
2. N.Xodjiev – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida dotsenti, t.f.n.
3. M. Xusainov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida dotsenti, i.f.n.
4. X. Alimov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida dotsenti, t.f.n.
5. B.Jo‘rayev – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Taqrizchilar:

1. S.Razzaqov - Namangan muhandislik-qurilish instituti “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida professori, t.f.d.
2. S.Xolmirzayev - Namangan muhandislik-qurilish instituti “QMB” kafedrasida professori, t.f.n.

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2023 - yil “03” - noyabrdagi 4 - sonli bayonnomasi)

TAYACH DOKTORANTURAGA KIRUVCHILAR UCHUN

05.09.01-QURILISH KONSTRUKTSIYALARI, BINO VA INSHOOTLAR IXTISOSLIGI BOYICHA

DASTUR

Dastur “Temir beton va tosh konstruksiyalari”, “Metall konstruksiyalari”, “Yog‘och konstruksiyalari”, “Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar” va “Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi” kabi ixtisoslik fanlarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Fan : TEMIR BETON VA TOSH KONSTRUKSIYALARI

Fanining predmeti, maqsadi, vazifasi.

Maqsad: talabalarga bino va inshootlar temirbeton va tosh-g‘isht konstruksiyalarining konstruktiv sxemalarini tanlash, tanlangan sxema asosida elementlarni hisoblash, armaturalash va birlashtirishning eng qulay yo‘llarini aniqlash, temir-beton konstruksiyalarni loyihalashda YeHMdan foydalanish yo‘llarini o‘rganish, shuningdek bakalavrlarda kasb-hunar kolleji talabalariga ta‘lim berish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Vazifa: ma‘ruza mashg‘ulotlari orqali g‘isht-tosh va temirbeton qurilmalari va ularning elementlarini hisobi haqida ilmiy asoslangan ma‘lumotlar berish, ularni loyihalashning asosiy qoidalari bilan tanishtirish, amaliy darslar orqali esa ma‘ruza darslarida olingan bilimlarni mustahkamlash va kurs lohilarini bajarish jarayonida quruvchi mutaxassisga xos bo‘lgan xususiyatlar hosil qilishni tugallash va mustahkamlashdir.

- **Temirbeton, tosh-g‘isht konstruksiyalari** fanini o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi tavsiya etiladi;

- **Temirbeton, tosh-g‘isht konstruksiyalari** nazariya asoslari bo‘limiga tegishli ma‘ruza darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanish;

- **Temirbeton, tosh-g‘isht konstruksiyalari** fani mavzularida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- **Temirbeton, tosh-g‘isht konstruksiyalari** tuzilishini o‘rganish va ularning asosiy parametrlarini va ularning elementlarini aniqlash mavzularida o‘tkaziladigan tajriba mashg‘ulotlarida kichik guruxlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Fan : METALL KONSTRUKSIYALARI

Fanining predmeti, maqsadi, vazifasi.

Maqsad – Fanni o‘qitishdan maqsad–talabalarda fuqaro binolari va inshootlarini loyihalash va hisoblash asoslari va ularning konstruktiv elementlari bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Vazifa– talabalarga binolarni qurish va barpo etishda bino loyihasidan foydalana olishni, qurilish amaliyotida bino va inshootlar metall konstruksiyalarini iqtisodiy jihatdan samarali echim variantini topa olishni o‘rgatishdan iborat.

“Metall konstruksiyalari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga shiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- metall konstruksiya elementlarini hisoblash, loyixalash va konstruksiyalarni sinashni bilishi;
- metall konstruksiyalarini hisoblashga oid internetdan olingan ma’lumotlar bilan o‘z bilimlarini to‘ldirib borishi, elementni mustahkamlikka va deformatsiyaga hisoblashni bilishi hamda kesim yuza bo‘yicha hosil bo‘ladigan normal va qiya kesimlardagi kuchlanishlarni to‘g‘ri aniqlashni bilishi;
- bakalavriat talabalari yuqorida keltirilgan tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga erishish uchun nazariy, amaliy, tajriba mashg‘ulotlari, kurs loyihasini bajarish ko‘zda tutiladi.
- talaba ishlab chiqarilayotgan va ishlatilayotgan metall konstruksiyalarini texnik-iqtisodiy va konstruktiv hal qilish; ularni aniq qurilish sharoitlarida samarali ishlatish; metall konstruksiyalarni turli yuk ko‘taruvchi konstruksiyalar bilan birga ishlatish; metall konstruksiyalar tizimini loyihalashni bilishi kerak.

Fan : YOG‘OCH KONSTRUKSIYA

Fanining predmeti, maqsadi, vazifasi.

Maqsad – talabalarda fuqaro binolari va inshootlarini loyihalash va hisoblash asoslari va ularning konstruktiv elementlari bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Vazifa – talabalarga binolarni qurish va barpo etishda bino loyihasidan foydalana olishni, qurilish amaliyotida bino va inshootlar Yog‘och va plastmassa konstruksiyalarini iqtisodiy jihatdan samarali yechim variantini topa olishni o‘rgatishdan iborat.

“Yog‘och va plastmassa konstruksiyalari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Yog‘och va plastmassa konstruksiya elementlarini hisoblash, loyixalashni bilishi;
- Yog‘och va plastmassa konstruksiyalarini hisoblashga oid internetdan olingan ma’lumotlar bilan o‘z bilimlarini to‘ldirib borishi, elementni mustahkamlikka va

deformatsiyaga hisoblashni bilishi hamda kesim yuza bo'yicha hosil bo'ladigan normal va qiya kesimlardagi kuchlanishlarni to'g'ri aniqlashni bilishi;

- bakalavriat talabalari yuqorida keltirilgan tasavvur, bilim va ko'nikmalarga erishish uchun nazariy, amaliy, kurs ishini bajarish ko'zda tutiladi.

- talaba ishlab chiqarilayotgan va ishlatilayotgan yog'och va plastmassa konstruktsiyalarini texnik-iqtisodiy va konstruktiv hal qilish; ularni aniq qurilish sharoitlarida samarali ishlatish; yog'och va plastmassa konstruktsiyalarni turli yuk ko'taruvchi konstruktsiyalar bilan birga ishlatish; yog'och va plastmassa konstruktsiyalar tizimining loyihalashni bilishi kerak.

Yog'och va plastmassa konstruktsiyalari fanini o'rganish jarayonida talaba, yog'ochning fizik-mexanik xossalari va ularga harorat hamda namlikning ta'sirini, yog'och birikmalarini, yog'och konstruktsiyalarini hisoblash asoslarini, tashqi kuchlar turlarini, konstruktsiya elementlarini birklikka hisoblash va berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi ko'ndalang kesim tanlashni uddalay olishni, elementlarni ustivorlikka hisoblashni va olgan bilimni aniq masalalarni hal qilish jarayonida tatbiq eta olish darajasiga yetishi zarur.

Fan : GRUNTLAR MEXANIKASI, ZAMIN VA POYDEVORLAR

Fanning predmeti, maqsadi, vazifasi.

Maqsad- talabalarda tog' jinslarining yemirilishi natijasida hosil bo'luvchi gruntning tashqi kuch ta'siridagi holatini, zamin zo'riqishi, cho'kishini, hamda uning mustahkamligi va turg'unligini hisoblashdan iborat.

Vazifa- talabalarni gruntlarni turlari, ularni fizik-mexanik xossalarini va inshoot zamini sifatida yuk ko'tarish holatini hisoblash va loyihalashga o'rgatishdan iboratdir.

Fanning ilmiy, nazariy, hisoblash va amaliy qonunlari ma'ruza, hisoblashamaliy ishlar, o'quv va texnikaviy adabiyotlar yordamida hamda mustaqil ta'lim va mustaqil ish jarayonlarida o'rganiladi.

“Gruntlar mexanikasi,” fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar:

- gruntlarning tuzilishi va tarkibi, gruntlarning qurilishga oid xossalari, grunt massivini kuchlanganlik deformatsiya holati, zaminlarning hisobi hamda zamin va poydevorlar turlari. gruntlar mexanikasining asosiy qoidalarini va ularni xarakterlaydigan koeffitsientlarni bilishi kerak;

- gruntlarni fizik-mexanik xossalarini aniqlashni, zaminlardagi zo'riqishlarni va kuchlanganlik deformatsiya holatini hisoblashni poydevorni hisoblashni bajarish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- kuchlanganlik xolatidagi deformatsiya boskichlarini;

-gruntlarning mustahkamligi va turg'unligi va ularni to'siq devorlarga bosimini

chuqur o‘zlashtirish, mustaqil ravishda qurilish maydonining muxandis-geologik shartini to‘g‘ri baxolash, zamin va poydevorning muqobil turini tanlash, zamin poydevorlar hisobi va loyihalashning eng yangi (qulay) usullarini qo‘llash, ularni barpo etishni takomillashtirish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Fan: SANOAT VA FUQARO BINOLARI ARXITEKTURASI

Fanining predmeti, maqsadi, vazifasi.

Maqsad – Talabalarda arxitekturaviy bilimlarning nazariy asoslarini, xonalarni mikroiklimini shakllanish xususiyatlarini, ularni ishonchliligini va uzoq muddatga chidamliligini, turar-joy, jamoat va sanoat binolarini amaldagi qurilish me‘yorlari va qoidalari asosida loyihalashni o‘rganish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun "Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi" fanini talablarini nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, binolarni loyihalash jarayoniga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Talabalarda binolari va inshootlarini loyihalash asoslari va ularning konstruktiv elementlari; binolarni loyihalashning fizika-texnikaviy asoslari; shaharsozlik asoslari; binolarni qayta tiklash va qayta qurish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Vazifa– Talabalarga binolarni qurish va barpo etishda bino arxitekturaviy loyihasidan foydalana olishni, qurilish va konstruktorlar amaliyotida binolar va inshootlar arxitekturaviy loyihalarni yaratish va undan foydalana olishni o‘rgatishdan iborat.

“Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi” fani bo‘yicha talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur:

- turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlarining turlari va o‘ziga xos hususiyatlari;
- turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlariga qo‘yiladigan talablar;
- turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlarning loyihaviy va konstruktiv yechimlarini baholash;
- bino va inshootlarni loyihalash me‘yorlari va qoidalari haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlarni loyihalash asoslari va ularning konstruktiv elementlarini;
- turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlar arxitekturasi fanning mohiyati, tushunchalari va masalalarini;
- arxitekturaviy-qurilish loyihalash asoslarini;
- loyihalashda namunaviy loyihalardan foydalanish;
- turli tipdagi bino va inshootlarini loyihalash asoslarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

- turar-joy, jamoat va sanoat binolarini loyihalash;
- turli tipdagi bino va inshootlarni loyihalashda yong'inga va zilzilaga qarshi talablarni e'tiborga olish;
- arxitekturaviy-qurilish loyihalashida issiqlik texnikasi, akustika va yorug'lik texnikasi bo'yicha hisoblashlarni bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun
05.09.01-Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi
bo'yicha kirish sinovlarini baholash
MEZONI

1. Yo'nalish fanlaridan kirish sinovlari yozma ish tarzda sinov savollariga javoblar yozish asosida o'tkaziladi. Har bir savolnoma 5 ta savoldan iborat bo'ladi.
2. Yozma ishlar 0 baldan 100 balgacha baholanadi. Har bir savol maksimal 20 baldan baholanadi.
3. Savolnomaning har bir savoli quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:
 - ✓ 15÷20 ball, savol to'la har tomonlama chuqur yoritilgan chizma sxemalar berilgan, shu savolning xamma pozitsiyalari yoritilgan xulosa berilgan, o'z fikr mulohazasini erkin ifodalay olgan;
 - ✓ 10÷15 ball, savol to'la yoritilgan chizma va sxemalari berilgan savolda asosiy pozitsiyalar yoritilgan, xulosa berilgan;
 - ✓ 5÷10 ball, savol qisman yoritilgan bo'lib, umumiy fikrlar berilgan, asosiy pozitsiyalar yoritilgan, chizma va sxemalari berilmagan, xulosa berilgan;
 - ✓ 0÷5 ball, savol qisman yoritilgan bo'lib, chizma va sxemalar berilmagan, xulosalar berilmagan.

Savolnomadagi 5 ta savolning yozilgan javoblariga qo'yilgan ballar yig'indisi asosida tayanch doktoranturaga kiruvchilarning ixtisoslik fanlaridan to'plagan umumiy bali aniqlanadi.

Ixtisoslik fanlaridan kirish sinov savollari va baholash mezoni "Bino va inshootlar qurilishi" kafedrasining 2023-yil 27-sentabrdagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (bayonnoma №2).

05.09.01-Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun ixtisoslik bo'yicha savollar:

Temir beton va tosh konstruksiyalari

1. Betonlar va ularning xossalari
2. Betonning hisobiy qarshiliklari
3. Temirbeton konstruksiyalar uchun armaturalar
4. Armaturani oldindan zo'riktirishning usullari
5. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalar
6. Bino va inshootlar temirbeton konstruksiyalarini loyihalashning umumiy qoidalari
7. Yuklar va ta'sirlar
8. Egiluvchi, siqiluvchi va cho'ziluvchi elementlar
9. Temirbeton konstruksiyalarni chegaraviy holatlar usuli bo'yicha hisoblash
10. Betonning markalari
11. Oldindan zo'riqish kuchlanishlarining yo'qolishi
12. Temirbetonning mohiyati
13. Darzbardoshlik kategoriyalari
14. Yakka armaturali temirbeton elementlar
15. Qo'sh armaturali temirbeton elementlar
16. Armaturaning klassifikatsiyalanishi
17. Vaqtinchalik va doimiy yuklamalar
18. Armaturali mahsulotlarning temirbeton konstruksiyalarida qo'llanilishi
19. Temirbetonning afzallik va kamchiliklari
20. Poydevorlar va ularning turlari

Metall konstruksiyalari

1. Metall konstruksiyalarning ishlatilish sohalari
2. Po'latlarning afzalliklari va kamchiliklari
3. Po'latlarning markalanishi
4. Metall to'sinlar, metal to'sinli qurilmalar
5. Payvand birikmalar, payvand birikmalarga qo'yiladigan talablar
6. Boltli va parchin mixli birikmalar
7. Metall konstruksiyalarni chegaraviy holatlar usuli bo'yicha hisoblash
8. Inshootga ta'sir etadigan yuklar va tashqi ta'sirlar
9. Markaziy siqilishga ishlovchi ustunlar
10. Ustun kesim turlari
11. Markaziy siqilishga ishlovchi sterjenlar hisobi

12. Cho‘zilishga ishlovchi sterjenlar hisobi
13. Prokat to‘sinlar hisobi
14. Yig‘ma to‘sinlar hisobi
15. Me‘yoriy va hisobiy qarshiliklar
16. Uchma-uch va burchak choklar hisobi
17. Fermalar
18. Katta oraliqli bino va inshootlar
19. Baland inshootlar
20. Bir qavatli sanoat binosi ko‘ndalang ramasingi tanlash

Yog‘och konstruksiyalari

1. Yog‘och materiallar turlari ularning tarkibi va fizik-mexanik xossalari.
2. Yog‘ochni mustaxkamligiga namlik va temperaturani ta‘siri
3. Qurilish fanerasi, uning tarkibi, fizik – mexanik xossasi afzallik va kamchiliklari.
4. Qurilishda yog‘och konstruksiyalarning ishlatilishi.
5. Yog‘och konstruksiyalarini chirish va yonishdan himoya qilish.
6. Yog‘och ustunlar
7. Yaxlit kesimli yog‘och to‘sinlar
8. Yog‘och konstruksiyalarni chegaraviy holatlar bo‘yicha hisoblash
9. Egiluvchi yog‘och elementlar hisobi
10. Siqiluvchi yog‘och elementlar hisobi
11. Yog‘och fermalar
12. Progonlarni hisoblash va loyihalash usullari.
13. Yog‘ochni yonishdan ximoya qilishni kimyoviy va konstruksion tadbirlari.
14. Yog‘ochni mustaxkamligiga namlik va temperaturani ta‘siri
15. Yog‘och konstruksiyalarining birikmalar hisoblash usullari.
16. Yog‘ochning agressiv muxitga, ishqor, kislota va tuzlar ta‘siriga kimyoviy chidamliligi.
17. Yog‘och elementlarni nogelli birikmalari va hisoblash usullari.
18. Progonlarni hisoblash va loyihalash usullari.
19. Rivojlangan mamlakatlarda yog‘ochni qo‘llab barpo etilgan bino va inshootlar.
20. Elimlangan to‘sinlarni loyihalash va hisoblash.

Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar

1. Zamin va poydevorlarni chegaraviy holatlar bo‘yicha hisoblash.
2. Grunt qatlamlarining fizik-mexanik xossalari.

3. Nomarkaziy kuch ta'siridagi birk poydevorlarning tag yuzasi o'lchamlarini hisoblash
4. Poydevorlarni zaminning yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha hisoblash
5. Qoziqli poydevorlarni hisoblash
6. Qoziqli poydevorlarning turlari va o'rnatishi
7. Zamin gruntlarini sun'iy mustahkamlash usullari
8. O'ta cho'kuvchan gruntlarda poydevorlar loyihalash
9. Zilzilabardosh zaminlarni hisoblash va loyihalash
10. Zamin va poydevorlarni ta'mirlash
11. Gruntlarning suv o'tkazuvchanligi
12. Zamin gruntlariga tushuvchi chegaraviy yuklar.
13. Zaminlarning yuk ko'tarish qobiliyati va turg'unligini hisoblash
14. Poydevorlarning zaminlari vaqt bo'yicha cho'kishini hisoblash
15. Gruntlarni sun'iy zichlash usullarini
16. Poydevorlarning notekis cho'kishi va og'ishini aniqlash
17. Poydevorni tekislik bo'ylab siljishga hisoblash
18. Zaminning yuk ko'tarish qobiliyatini hisoblash.
19. Boshlang'ich chegaraviy yukni aniqlash
20. Gruntlarning o'z og'irligi ta'sirida yuzaga keluvchi zo'riqish

Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi

1. Binolarning memoriy va kompozitsiya asoslari
2. Bino va inshootlar haqida tushunchalar va ularga qo'yilgan talablar
3. Binolarga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar
4. Poydevorlar va ularning konstruktiv yechimlar
5. Qurilishda industrilashtirish. Yagona modul tizimi
6. Binoning konstruktiv elementlari
7. Turar-joy binolarining hajmiy-tarxiy yechimlari
8. Karkasli va karkassiz binolar
9. Tashqi devorlar va ularga qo'yilgan asosiy talablar
10. Turar joy binolarining parda devorlari
11. Balkonlar, lodjalar va erkerlar
12. Turar-joy binolarining qavatlararo yopmalar
13. Tomlar. Ularning konstruktiv yechimlari
14. Pollar va ularning konstruktiv yechimlari
15. Eshiklar va derazalar, ularning konstruktiv yechimlari
16. Zina va liftlar
17. Jamoat binolarining turlar

18. Jamoat binolariga qo'yiladigan talablar
19. Jamoat binolarining asosiy rejaviy elementlari
20. Jamoat binolarining bosh rejalarini loyihalash

BAHOLASH MEZONI

4. Yo'nalish fanlaridan kirish sinovlari yozma ish tarzda sinov savollariga javoblar yozish asosida o'tkaziladi. Har bir savolnoma 5 ta savoldan iborat bo'ladi.
 5. Yozma ishlar 0 baldan 100 balgacha baholanadi. Har bir savol maksimal 20 baldan baholanadi.
 6. Savolnomaning har bir savoli quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:
 - 15-20 ball, savol to'la har tomonlama chuqur yoritilgan chizma sxemalar berilganshu savolning hamma pozitsiyalari yoritilgan xulosa berilgan, o'z fikr mulohazasini erkin ifodalay olgan;
 - 10-15 ball, savol to'la yoritilgan chizma va sxemalari berilgan savolda asosiy pozitsiyalar yoritilgan, xulosa berilgan;
 - 5-10 ball, savol qisman yoritilgan bo'lib, umumiy fikrlar berilgan, asosiy pozitsiyalar yoritilgan, chizma va sxemalari berilmagan, xulosa berilgan;
 - 0-5 ball, savol qisman yoritilgan bo'lib, chizma va sxemalar berilmagan, xulosalar berilmagan.
- Savolnomadagi 5 ta savolning yozilgan javoblariga qo'yilgan ballar yig'indisi asosida tayanch doktoranturaga kiruvchilarining ixtisoslik fanlaridan to'plagan umumiy bali aniqlanadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Namangan muhandislik-qurilish
instituti rektori

Sh.Ergashev

2023-yil



**08.00.15 – Tadbirkorlik va ichik biznes iqtisodiyoti ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun
mutaxassislik fanlaridan imtixon**

DASTURI

Namangan-2023

Tuzuvchi:

O.A.Aripov Namangan muhandislik-qurilish instituti “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, i.f.d., prof.

Taqrizchilar:

N.J. Sotvoldiyev “Menejment” kafedrası prof. i.f.d. (DSc)

I.Q. Sirojiddinov “Iqtisodiyot” kafedrası professori

Ushbu dastur Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2023 - yil “03” - noyabrdagi 4 - sonli bayonnomasi)

KIRISH

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga asosan mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko'tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida xalqimizning ishonchi va orzu-niyatlari, ezgu umidlarini ro'yobga chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish"¹ alohida belgilab berilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi belgilangan vaqifalarni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli beqiyosdir.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati to'g'risida so'z yuritganda, "mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor xissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o'rni ham ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu boisdan ham agar biz iqtisodiyotimizni, ijtimoiy sohani yanada yuksaltiramiz desak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishimiz zarur"².

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi xalqaro andozalarni mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ishlarni olib borish xalqaro andozalarni mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holatidan va chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotidan kelib chiqadi.

Dasturda qo'yilgan mavzular 08.00.15 – "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga da'bogarlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

Mazkur masalalar bo'yicha nazariy muammolar fan doktorligiga da'vogarlarning shaxsiy qarashlarni shakllanishi yuzaga chiqarishga qaratilgan. Dastur 08.00.15 – "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu dastur 08.00.15 – "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga talabgor katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar instituti uchun mo'ljallangan.

¹ Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli yangi kitobi chop etildi. //https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoyevning-yangi-ozbekiston-strategiyasi-nomli-yangi-kitobi-chop-etildi.

² Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratish – eng muhim vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2021 yil 20 avgust – <https://uza.uz/uz/posts/>

ASOSIY QISM

1-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 5 fevralda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyatini erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-sonli Qonuni. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'ri. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

2-mavzu: Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 5 fevraldagi qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-sonli Qonunida belgilab berilgan tadbirkorlik turlari. Ishlab chiqarish tadbirkorligi. Innovatsion tadbirkorlik. Ilmiy texnik tadbirkorlik. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik. Tijorat tadbirkorligi. Moliyaviy tadbirkorlik. Maslahat tadbirkorligi. Maslahat xizmatlari.

Tadbirkorlik shakllari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik. Xususiy tadbirkorlik. Jamoa tadbirkorligi. Firmalar. Mas'uliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar. Aksiyadorlik jamiyati. Korporatsiya. Xolding kompaniya. Davlat korxonalari. Konsern. Konsortsiyum. Kooperativ. Kartel. Sindikat. Venchur korxonalar. Ijara korxonalar. Injining korxonalar.

3-mavzu: Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 aprelda qabul qilingan "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'RQ-327-sonli Qonuni. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Kichik biznes sub'yektlarini bank, soliq va moliya muassasalaridan ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur hujjatlar, ularning mazmuni. Kichik biznes sub'yektlarining bankrotligi. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini qayta tashkil etish va yopish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya berish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya beruvchi tashkilotlar. Litsenziya berish muddatlari. Litsenziyani bekor qilish tartibi.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini boshqarish usullari va qarorlar qabul qilish jarayoni.

4-mavzu: Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarida marketing faoliyatini tashkil etish

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketingning ahamiyati. Marketing – biznes falsafasi. Marketingning boshqaruv funksiyasi. Bozorni tanlash. Tadbirkorlik faoliyatida bozor segmentatsiyasining ahamiyati. Bozor segmentatsiyasining xususiyatlari. Bozorni segmentlashni tashkil etish. Bozordagi maqsadli segmentni tanlash. Bozor imkoniyatlarida biznesdagi kuchli tomonlarning muvofiqligi. Tovarining hayotiylik davri. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida reklama faoliyatini tashkil etish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini uchun marketing dasturini ishlab chiqish.

5-mavzu: Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rejalashtirishda biznes rejaning ahamiyati. Biznes rejaning mohiyati, mazmuni va uni tuzish zaruriyati. Biznes rejaning asosiy bo'limlari. Biznes rejani bajarilishini nazorat qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatini operativ va strategik tahlil qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatini samaradorligi tahlili.

6-mavzu: Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 avgustda tadbirkorlar bilan muloqot uchrashuvida, "Tadbirkorlik faoliyatini infratuzilma bilan ta'minlash yo'nalishida"gi masalalar. Infratuzilmaning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari. Brokerlik idoralari, ulgurji va chakana savdo tuzilmalari, lizing, konsalting va sug'urta kompaniyalari, bojxona xizmati, axborot – maslahat markazlari, injinering va auditorlik firmalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 avgustda tadbirkorlar bilan muloqot uchrashuvida, "Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasi va kreditlarning maqbul foiz stavkalarini shakllantirish yo'nilishida" qanday masalalar o'z ifodasini topdi.

O'zbekistonning bank-moliya tizimi. Bank-moliya sohasidagi o'zgarishlar. Banklarning asosiy operatsiyalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli. Banklardan kredit olish tartibi.

O'zbekistonda soliq tizimi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar. Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlaridan olinadigan soliq

turlari. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlaridan soliq olish qoidalari va soliq imtiyozlari.

7-mavzu: Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 sentyabrdagi "Tadbirkorlik sub'yektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6314-sonli Farmoni.

Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati tarkibi va elementlari. Kichik biznes sub'yektlarining ishlab chiqarish, sotish va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarni turkumlash. Ishlab chiqarish xarajatlari. Noishlab chiqarish xarajatlari. Ichki xarajatlar. Tashqi xarajatlar. Doimiy xarajatlar. O'zgaruvchan xarajatlar. Bevosita xarajatlar. Bilvosita xarajatlar. Mahsulot tannarxiga va uni hisoblash usullari. Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari.

8-mavzu: Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy faoliyati tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 sentyabrdagi "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik sub'yektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6307-sonli Farmoni. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy moliyaviy hujjatlari. Balans. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari moliyaviy faoliyatini tahlil qilish. Moliyaviy tahlilning turlari va ularni o'tkazish usullari. Kichik biznes va tadbirkorlikda moliyaviy rejalashtirishning mohiyati, maqsadi va asosiy ko'rsatkichlari. Kichik biznes va tadbirkorlikda moliyalashtirish manbalari. Kichik biznes sub'yektlarini kredit bilan ta'minlash shakllari. Kredit turlari. Kichik biznes sub'yektlarini moliyalashtirishning boshqa manbaalari va ulardan samarali foydalanish.

Yalpi daromad va foyda. Foydaning turlari. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida foyda turlarini tahlil qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida rentabellik darajasini hisoblash usullari.

9-mavzu: Tadbirkorlik etikasi va madaniyati

Tadbirkor rahbar etikasi. Tadbirkor rahbarning etika kodeksi. O'ziga jab etish imidji. Tadbirkor rahbar faoliyatining ruxiy-psixologik xususiyatlari. Tadbirkor rahbar etiketi. Suhbatlashish, tanishish hamda so'rashish normasi. Ish kontaktlarini tashkil etish. Ish suhbatlarini olib borish. Ish gog'ozlarini yozish. Telefonda gaplashish madaniyati. Ish protokoli va hisoboti. Tadbirkor rahbarning nutq madaniyati va uning ruhiy-psixologik xususiyatlari. Tadbirkor rahbarning tashqi ko'rinishi va o'zini tutishi. Tadbirkor rahbar va xodimlar o'rtasidagi

munosabatlar. Tadbirkor rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar. Tadbirkor rahbar faoliyatida mojaroli holatlar va ularni hal etish usullari.

10-mavzu: Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarida eksportning hozirgi holati va tahlili. Eksportyor korxonalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Eksportyor korxonalarda yaratilgan shart-sharoitlar va imtiyozlar. Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar oldida turgan mummolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Kichik biznes korxonalarida eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Xorijda o'zbek savdo uylarini tashkil etish. Eksport ko'rsatkichlarini hisoblash usullari.

11-mavzu: Korxonalarining tashqi muhitini tahlil qilish

Mikromuhit tuzilmasi. Bozor yoki segmentda uzoq muddatli foyda olishdagi ichki yoqimlilikni aniqlovchi M.Porterning beshta raqobat kuchlari: raqobatchilar, tovar o'rnini bosuvchi mahsulotlar, yetkazib beruvchilar, sotuvchilar, bozorning salohiyatli ishtirokchilari. Intensiv raqobatchilik havfi. Tijorat kurashida xarajatlar qiymatini kamaytiruvchi to'siqlar. Yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishi xavfi. Jozibali segmentga kirish va undan chiqishdagi to'siqlar. Har tomonlama yuqori to'siqli strategiyalar. Yangi texnologiya va mahsulotlarni monitoringi. Yetkazib beruvchilarning bozordagi hukmronligining kuchayish havfi. O'ziga jalb qilmaydigan segment. Yetkazib beruvchilar kuchi, darajani va konsentratsiyaning ortishi (o'sishi), o'rnini bosuvchi mahsulotlar, safining kamayishi. Himoyalash strategiyasi. Strategiyani amalga oshirish uchun zaruriy bozor sharoitlari va xatarlari.

12-mavzu: Kichik korxonalarining ichki muhitini tahlil qilish

Iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifalari va unda qo'llaniladigan usullar. Korxonalar faoliyatining SWOT – tahlili usuli. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va ularning tarkibi. Kam xarajatlar orqali raqobat ustunliklariga erishish. Mahsulot tannarxidagi tarkiblarning farqlanishi: keng ko'lamlilik ishlab chiqarish yo'li orqali tejamkorlikka erishish, ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulotlar konstruksiyasi, tarmoqqa kirishdagi xarajatlar, tashkiliy omillar. Xarajatlarni kamaytirish orqali raqobatda ustunlikka erishish. Mahsulotning differentsiyatsiyasi: tovar differentsiyatsiyasi, xodimlar differentsiyatsiyasi, imidj va xizmat ko'rsatish differentsiyatsiyasi. Mahsulot differentsiyatsiyasining imkoniyatlari. Fokushlashish strategiyalari. Farqlanuvchi qobiliyatlar tushunchasi. Qiymat zanjiri: birlamchi va ikkilamchi faoliyatlar tahlili.

13-mavzu: Biznes g'oya - tahlilini metodik asoslari

Strategik biznes rejalashtirishning mohiyati. Missiya o'rniga biznes g'oya. Bozor ehtiyoji. Ichki qobiliyat. Taraqqiyot imkoniyatlari. Biznes sharti, qobiliyatlarga misollar. Institutsional bilim. Ichki jarayonlar. Ishonch va obro' e'tibor. Himoyalani qonun qoidalari. Strategik rejalashtirish yangilashish va transformatsiyalash jarayoni sifatida. Biznes g'oya, biznesning farqlanadigan jihatlari, strategik tahlil, rejalashtirish, biznes g'oyaning tarkibiy qismlari (bozorning ehtiyojlari, korxonaning ichki jihatlari, korxonaning jihatlarning rivojlanish imkoniyatlari, biznes sharoitlari).

Ehtiyoj va talabning tuzilishi. Xususiy sarmoya tuzilmasi. Yaderli foydalilik. Konsultatsion mahsulot. Biznes soha chegaralarini aniqlash. Xususiy imkoniyatlar va qobiliyatlarni tashkillashtirishning tahlili. Tashkilot shaxsiy sarmoyasini tahlil qilish. Ishbilarmonlik xavfini hisobga olgan holda biznes soha ko'lamini aniqlashtirish. Biznes-g'oyaning shakllantirish.

14-mavzu: Diversifikatsiya va integratsiya

Diversifikatsiya turlari. Oldinga va orqaga integratsiya. Birlashuvchilarning asosiy shakllari. Yutilish va qo'shilishlar. Integratsionalizatsiya. Kirish va chiqishdagi to'siqlar. Biznesning strategik sohasi. Konglomeratsiya va sinergizm mezonlari. Ishlab chiqarish zanjiridagi bo'shliqlar. Xavfning pasayishi, diversifikatsiyalashgan korxonalar, diversifikatsiyaning afzalliklari va kamchiliklari. Strategik alianslar. Qo'shma korxonalar. Chet el bozorlariga chiqish usullari: eksport, franchayzing, qo'shma korxonalar, to'raligicha xorijiy kapital evaziga tuzilgan korxonalar. Uzoq va qisqa muddatli strategik shartnomalar. Global strategiya turlari: global, xalqaro, mul'timilliy va transmilliy strategiyalar.

15-mavzu: Bozor ulushi va o'sish sur'atini taqqoslash: Boston konsalting guruhi (BCG-Boston Consulting Group)

Boston konsalting guruhi (BCG) modelining kelib chiqish tarixi. BCG modelining tuzilishi. Tajriba samarasi va mahsulotning hayot sikli modeliga asoslangan BCG modelining ikki gipotezasi. BCG matritsa segmentatsiyasi. Yulduzlar, sog'iluvchi sigirlar, muammo tug'diruvchi bolalar, itlar. Firmaning biznes soha xarakteristikasi. Har xil moliyaviy ehtiyojlar va strategik maqsadlarga asoslangan bozorning to'rt guruhi. Rendi firmasining choy bozoridagi faoliyati. Rendi firmasi biznes sohasining BCG modeli, BCG modelining kuchli va zaif tomonlari. Bozorning nisbiy ulushi. BCG modelining asosiy kamchiliklari. BCG modelida foydalaniladigan o'zgaruvchilar. Boston matritsasidagi foyda, naqd pul oqimi va muayyan strategiyasi bo'yicha takliflar. BCG modelining modifikatsiyalashgan matritsasi. BCG modelining modifikatsiyalashgan matritsasida qo'llaniladigan kriteriyalar: raqobatli ustunliklarning hajmi, raqobatli ustunliklarni ro'yobga chiqarish usullarining miqdori.

16-mavzu: Bozorning raqobatbardoshligini va yoqimlilikini taqqoslash: Mak Kinsey (GE/Mc.Kinsey) modeli

